

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT
UNIVERSITETI**

FILOLOGIYA FAKULTETI

«O'ZBEK FILOLOGIYASI» KAFEDRASI

**«Insho yozma nazorat turi sifatida»
mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: «O'zbek filologiyasi» ta'lim
yo'nalishi bitiruvchisi 4-kurs talabasi
Sa'dullayeva Mohira

ILMIY RAHBAR:
f.f.n., dots. Bobojonov F.

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi.
__-sonli bayonnomasi «__» may 2013 yil

NUKUS- 2013

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI HIMOIYAGA TAVSIYA
QILINADI:**

Fakultet dekani:	dots. Abdullaev H.
Kafedra mudiri:	dots. Bobojonov F.
Ilmiy rahbar:	dots. Bobojonov F.

DAK Q A R O R I:

Sa'dullayeva Mohiraning «**Insho yozma nazorat turi sifatida**» mavzusidagi bitiruv-malakaviy ishiga Davlat attestatsiyasi komissiyasi qarori bilan « » () bahosi qo'yilsin.

DAK kotibi:

N.Qilichev

«_____»_____ 2013 yil

Insho yozma nazorat turi sifatida

Reja:

Kirish.

I BOB. INSHO NAZARIYASI

- 1.1. Inshoda mavzuning tutgan o'rne.
- 1.2. Reja tuzish.
- 1.3. Inshoning asosiy matni ustida ishlash.
- 1.4. Epigraf – muxtasar bayon.
- 1.5. Tezis, dalil, sitata va xatboshi.

II BOB. INSHO YOZISHGA TAYYORGARLIK

- 2.1. Insho materialli bilan tanishish.
- 2.2. Insho bosqichlari (qoralama (xomaki), asl nusxasi.)
- 2.3. Insho bayonidagi topqirlik.
- 2.4. Inshoda nazariy bilimning ahamiyati.

III. BOB. INSHO TURLARI VA UNDAGI GRAMMATIK XATOLAR USTIDA ISHLASH

- 3.1. Adabiy mavudagi insho.
- 3.2. Adabiy-ijodiy insho.
- 3.3. Ijodiy (erkin) insho.
- 3.4. Inshodagi grammatik xatolar ustida ishlash.

UMUMIY XULOSALAR

Foydalanilgan adabiyotlar

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Jamiyatdagi buyuk evrilishlar, tub o'zgarishlar hamma davrlarda, birinchi galda, tilda o'z in'ikosini topishi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. XX asr so'nggi choragida, til uslublarida sezilarli darajada o'zgarishlar sodir bo'ldi: ona tili taqdiri dolzarb masalaga aylandi. Bu haqda Respublika Prezidenti Islom Karimov "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" nomli asarida: "Ona tilini bilmaydigan odam o'zining shajarasini, o'zining ildizini bilmaydigan, kelajagi yo'q odam¹", - deya o'z fikrini bildirib o'tgan. Yurtimizda barcha sohalarga, ayniqsa, ta'lim sohasiga juda katta e'tibor berilmoqda. Chunki insonning kelajakda qanday shaxs bo'lib voyaga yetishishi, uning yoshligida qanday ta'lim-tarbiya olganiga bog'liqdir. Bu borada ayniqsa, o'z kasbining fidoyi egalari – ustozlarning xizmatlari kattadir. Maktab o'quvchilarining ijodiy fikrlashini kengaytirish o'qituvchilar oldiga qo'yilgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki bugungi kunda o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish umumta'lim maktablari ona tili ta'limining bosh maqsadidir. Ijodiy fikrlashni va yozma nutqni rivojlantirish uchun, asosan, yozma ish, bayon va insho kabi nazorat usullaridan foydalaniladi. Bularning orasida inshoning o'rni alohidadir. Chunki u mustaqil ishlash ko'nikmasini hosil qilishda asosiy vazifani bajaradi. Ya'ni inshoning imkoniyatlari keng bo'lishi bilan birga undan ham bilim va ko'nikmani mustahkamlovchi vosita sifatida, ham nazorat usuli sifatida foydalanish mumkin. Bugungi kunda biz unchalik e'tibor bermayotgan, ko'zga ko'rinmas, lekin asosiy muammolarimizdan biri ham o'quvchilarning insho yozishdagi saviyasining pastligidir. Bunga bir necha omillar sabab bo'lmoqda: birinchidan ta'lim tizimida yozma nazoratlarga, xususan, inshoga samarasiz nazorat usuli sifatida qaralib unga e'tibor kamaygan. Shuningdek, ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari ham insho tekshirish o'qituvchining ko'p vaqtini olganligi bois bu vositadan foydalanishni unchalik ma'qul ko'rishmaydi. Biz bu bilan ustozlarni tanqid qilmoqchi emasmiz, hozirgi kunda maktab o'qituvchilarining asosiy kuchi qog'ozbozlikka sarf bo'layotganini

ham yaxshi bilamiz. Lekin, afsuski, akademik litsey va kasb hunar kollejlarini tugallagan yoshlarning adabiy mavzularda yozgan insholari mazmuni haddan tashqari bir-biriga o'xshab ketmoqda. Erkin mavzuda yozilayotgan insholarda ham alohida e'tiborga molik mustaqil fikrlarni uchratish amri mahol bo'lib qolyapti. Bu ko'ngilsiz holatning vujudga kelish sabablarini juda ko'p omillarga bog'lash mumkin. Ammo ular orasida to'rt omilni alohida ajratishni zarur deb bilamiz:

1. O'quvchilarning adabiyot fani asoslarini o'zlashtirish manbalaridan hisoblangan darslik.
2. Mazkur darslikdagi ma'lumotlarni o'quvchilarga yetkazish yo'llarini ko'rsatuvchi metodik qo'llanmalar.
3. O'quvchilarga fan asoslarini tushuntiruvchi o'qituvchi.
4. Bevosita o'quvchilarning o'zlari.

Bu to'rt omilning birontasi talab darajasida bo'lmasa, o'qish-o'qitish jarayonida nomuvofiqlik vujudga keladi. Ta'lim oldiga qo'yilgan maqsadga erishish mushkullashadi. Vaholanki, hozirgi kunda na maktab darsligi, na metodik qo'llanmalarimiz, na o'quvchilarning adabiyot darslariga bo'lgan qiziqishlarini qoniqarli deb bo'lmaydi. Hatto o'qituvchilar ham o'z vazifalariga mas'uliyat bilan qaramoqdalar, deyish qiyin.

Mamlakatimizda umumiy ta'lim maktablaridagi o'qish ishlarini yaxshilashga qaratilgan qator tadbirlar qabul qilindi. Ular akademik litsey va kasb hunar kollejlariga ham taalluqlidir. Ammo, ko'p hollarda bu tadbirlarning hayotga tatbiq etilishini joylardagi mutasaddi o'rtoqlar nazorat qilmayaptilar.

Keyingi yillarda umumta'lim maktablar uchun yaratilgan dastur va darsliklar qayta ko'rib chiqilmoqda.

Akademik litsey va kasb hunar kollejlarida o'rganiladigan materiallarni o'quvchilarga tushuntirish yo'llari bo'yicha ko'rsatma beruvchi metodik qo'llanmalarining yaratilishi ham yaxshi yo'lga qo'yilmagan. Bu sohada ko'zga ko'rinarli bironta jiddiy metodik asarni namuna qilib ko'rsatish amri mahol. Binobarin, yetakchi metodistlarimiz akademik litsey va kasb hunar kollejlarida

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. Т.2011.

katta tajriba to'plagan malakali o'qituvchilar bilan hamkorlikda yangi ish boshlagan yosh mutaxassislariga yordam ko'rsatish usullarini belgilab chiqsalar, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Maorif sohasida ko'p yildan ortiq vaqt mobaynida to'plagan tajribalar dars mashg'ulotlarini o'tishda o'qituvchining malakasi, tajribasi, shaxsiy fazilatlari, bilim darajasi asosiy omillardan ekanini tasdiqladi. O'quvchilarni badiiy adabiyotning go'zal olamiga olib kirish, ularni so'z san'ati sirlarini payqay oladigan asl kitobxon qilib yetishtirishda o'qituvchining mahorati juda muhim ahamiyatga egadir. Izlanuvchan o'qituvchi hech qachon o'quvchilarning bilim saviyalari zaifligidan shikoyat, qilmaydi. U bir necha mashg'ulot davomida o'z talabalariga badiiy adabiyotning inson ruhiga ta'sir etish kuchidan foydalangan holda ma'lumot beradi va shu tariqa ularning bilimlarini oshirib boradi.

Tajribali o'qituvchilar sinf o'quvchilarini ko'pincha uch toifaga bo'ladilar: birinchi toifani bilimga chanqoq o'quvchilar; ikkinchi toifani loqayd o'quvchilar tashkil etadilar. Bunday o'quvchilar o'qituvchining topshiriqlarini faqat baho olish uchungina bajaradilar. Ish davomida alohida tashabbus ko'rsatmaydilar. Uchinchi toifaga bilim olishni istamaydigan o'quvchilar mansub bo'ladi. Bu toifadagi o'quvchilar mashg'ulotni o'tkazishga xalaqit beradilar. Ortiqcha luqmalar bilan sinf e'tiborini mavzudan chetga tortmoqchi bo'ladilar. Bizning vazifamiz ana shunday talabalardan so'z san'atini sevuvchi kitobxonlar tarbiyalashdan iborat. Mutaxassis butun e'tiborini o'z hayotini badiiy adabiyotdan ajragan holda tasavvur eta olmaydigan yuksak didli kitobxonni tarbiyalab yetkazishga qaratmog'i lozim. Agar jamiyatdagi odamlarning ma'naviy qiyofasi ko'p jihatdan san'at va adabiyotning ahvoli bilan belgilanishini hisobga olsak, san'at va adabiyotning taraqqiyoti darajasi, o'z navbatida, bevosita kitobxonning estetik didi, saviyasining darajasiga bog'liqligi ayon bo'lib qoladi.

Afsuski, keyingi yillarda adabiyot darslari maktab darsligida bayon qilingan fikrlarni ko'r-ko'rona qayta bayon qilish, yodlash mashg'ulotlariga aylanib qoldi. O'quvchilar o'zlashtirishlari lozim bo'lgan ma'lumotlarni mustaqil anglash, badiiy adabiyotning estetik go'zalligini qabul qilish emas, balki o'qituvchining ixtiyoriga

ko'ra mashg'ulot davomida qayd etilganlarni qayta takrorlab berib, zaruriy bahoni olishga harakat qiladilar. Umumiy ta'lim va o'rta maxsus ta'lim maktablarimizda badiiy asar tahlili bevosita badiiy matndan kelib chiqqan holda emas, adabiyotshunoslikdagi umumiy fikrlarni tushunib-tushunmay bayon qilishdan iborat bo'lib qolmoqda.

Oybek, Hamid Olimjon, G'afur G'ulom ijodini aralashtirib yuborish kabi kamchilikdan kelib chiqmoqda. O'qish va o'qitishimizdagi bu nuqson, o'z navbatida, yozma ishlarda ham ko'zga tashlanadi. Ba'zi insholarda yozuvchi, asar nomi, obrazlarning ismlarini o'zgartirish mutlaqo uning mazmuniga ta'sir etmaydi. Bunday holatlar dars mashg'ulotlari sifatini tubdan o'zgartirishni taqozo qilmoqda.

Ayrim o'quvchilar litsey, kollejlarga ilmiy adabiyot namunasi sifatida murakkab bo'lgan darsliklarnigina emas, xrestomatiyada keltirilgan badiiy parchalarni ham ravon o'qish malakasiga ega bo'lmagan holda keladilar. Ular mavzuni bo'g'inma-bo'g'in, harfma-harf o'qiydilar. Bu esa o'qituvchining ish faoliyatini yanada qiyinlashtiradi. Chalasavod bo'lgan talabani yozma ish yozishga o'rgatish qo'shimcha mehnatni, muttasil ish olib borishni talab qiladi. Albatta, o'qituvchi bunday hollarda bilim jihatdan zaif o'quvchiga ta'lim berishdan tamoman voz kechib, bir amallab uni kasb hunar kollejinigina tugattirib yuborishga emas, asta-sekin durust o'zlashtiradigan o'quvchilar qatoridan o'rin olishiga ko'maklashishi, unga alohida e'tibor berishi ma'qul. Binobarin, umumta'lim maktabning quyi sinflarida obyektiv yo'q subyektiv sabablarga ko'ra yetarli ma'lumot olmagan o'quvchilarni juda ehtiyotkorlik bilan adabiyot olamiga olib kirishimiz, har biriga individual yondashgan holda ish tutishimiz yaxshi natija beradi.

Quyidagi bitiruv malakaviy ishimizda, insholarning mavzulari, reja tuzish yo'llari, insho yozishga o'rgatishning usullari haqida fikr yuritish ekanmiz, ulardan taxminiy namunalar berdik, ikki xil mavzuda yozilgan insho namunasini havola etdik. Albatta, bu namunalarni insho yozishda asosiy mezon sifatida qabul qilish to'g'ri emas. Ularning har biri o'qituvchining, sinfning xususiyatiga qarab o'zgartirilishi mumkin. Ayrim insho mavzularida yozilayotgan mavzu yuzasidan murakkabroq fikrlar ham aytilgan bo'lishi mumkin. O'qituvchi ulardan sinf

saviyasini e'tiborga olgan holda foydalanishi mumkin. Mana shu jihatlar ishimizning dolzarbligini tashkil qiladi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Tadqiqotning asosiy maqsadi insho yozishda ona tili va adabiyoti talimining tutgan o'rnini, inshoning nazorat turi sifatidagi jihatlarini ochib berishdan iboratdir. Mazkur maqsadni amalga oshirish o'z navbatida quyidagi vazifalarni belgilab beradi:

- umumta'lim va o'rta maxsus talimda inshoning tutgan o'rnini belgilash;
- insho yozish nazariyasini o'rganish va tahlil qilish;
- inshoda mavzu, reja, epigraf kabi unsurlarning tutgan o'rnini belgilash;
- insho yozishga tayyorgarlik ko'rish va insho texnikasi masalalarini tahlil etish;
- adabiy, adabiy-ijodiy va ijodiy mavzularda yoziladigan insholarning o'xshash va farqli jihatlarini tavsiflash.

Mavzuni yoritish jarayonida ilmiylik, xolislik, tarixiylik tamoyillariga tayanildi. Tadqiqot jarayonida mavzuga milliy va umuminsoniy qadriyatlar, milliy istiqlol g'oyasidan kelib chiqqan holda yondashildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi shundaki, umumta'lim va o'rta maxsus ta'limda yozma nazorat usuli sifatida inshoning o'rni muhimligi ochib berildi. Shuningdek, inshoning tuzilishi, turlari, insho yozish bo'yicha tavsiyalar taqdim etildi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. O'quvchi va talabalar bilimini yozma shaklda nazorat qilish bugungi kunda keng tarqalgan usullardan biridir. Mazkur nazorat turining bir qancha afzalliklari va o'ziga yarasha nuqsonlari mavjud. O'quvchi va talabalarning yozma nutqini hamda savodxonligini tekshirishda bu usul samarali natija berishi mumkin. Yozma nazorat shakllari o'quvchini o'ylashga, fikrlashga, ijodiy mulohaza yuritishga, ba'zi hollarda tegishli adabiyotlarga murojaat qilishga undaydi.

Insho bu borada eng asosiy vosita hisoblanadi. Shu bois mazkur nazorat usulini ilmiy-metodik asosda o'rganish ham nazariy, ham amaliy jihatdan ahamiyatlidir.

Tadqiqot predmeti va obekti. Tadqiqot predmeti va obekti sifatida yozma nazorat turlariga bag'ishlangan adabiyotlar va turli mavzulardagi insholar, qo'llanilgan pedagogik metodlar, mazkur yo'nalishda yaratilgan darslik va qo'llanmalar tanlab olindi va ular tahlil qilindi.

Tadqiqotning tuzilishi va tarkibiy qismlari. Bitiruv-malakaviy ishi kirish, uchta bobdan iborat asosiy qism, umumiy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. INSHO NAZARIYASI

O'quvchilarni insho yozishga o'rgatish davomida insho nazariyasi haqida, yozma nutqning qonun-qoidalarini haqida ma'lumot berib borish zarur. Og'zaki nutq bilan yozma nutq o'rtasidagi farq haqida har bir o'quvchi tasavvur hosil qilishi kerak. Og'zaki nutqda so'zlovchi o'z mulohazalarini aytish davomida qo'l harakatlari bilan fikrining osonroq tushunilishiga erishadi. U nutqning mazmuniga ko'ra ohang tanlay olish imkoniga ega. So'zlash davomida intonatsiyani o'zgartirishi, ayrim noto'g'ri o'rinlarni yo'l-yo'lakay tuzatib borishi mumkin. Ammo yozma nutqda bayon etilayotgan fikr orfografik, punktuatsion, uslubiy qoidalariga to'la amal qilingan holda yozilmog'i lozim. Yozilgan fikrda noaniq jumlar, imlo xatolariga yo'l qo'yilgan so'zlar bo'lmasligi lozim. O'qituvchi o'z suhbatida noo'rin qo'yilgan yoki zarur o'rinda qo'yilmagan vergul gapning mazmunini tamoman o'zgartirib yuborishi mumkinligini tushuntiradi. "Avvallari xalqqa zulm qilgan, qullar mehnati evaziga boylik orttirgan quldorlar endilikda Hasan va Fotimalarning taqdiriga ham chang solmoqchi bo'ladilar²" tarzida tuzilgan gapda vergulning tushib qolishi jumlaning ma'nosini buzib yuboradi, natijada «qullar xalqqa zulm qilgan» degan fikr kelib chiqadi. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. O'qituvchi o'quvchilarga yozma ishlarni yozishda muallifning mas'uliyati haqida ham tushuncha beradi. Ko'pincha o'quvchilar imlo qoidalariga mutlaqo e'tibor qilmagan holda faqat tavsiya etilgan insholarning mavzuini yoritish yuzasidan o'z mulohazalarini bayon etishga kirishib ketadilar. Ular bir so'zni bir necha ko'rinishda ham yozaveradilar. Masalan, «Hamid Olimjon»ni bir safar «Hamid Olimjon», ikkinchi safar «Xomid Olimjon», keyinchalik esa «Homid Olimjon» tarzida yozadilar. Inshodagi xatolar ustida ishlash mashg'ulotida o'quvchining taniqli yozuvchilarning ism-familiyalarini to'g'ri yoza olish-olmasliklari ma'lum bo'ladi. Aynan shu holat G'afur G'ulom (G'ofir G'ulom), Muqimiy (Muqumiy), Abdulla Qahhor (Abdulla Qohhor) kabi shoir va yozuvchilarning ism-familiyalarini yozishda ham ko'zga tashlanadi.

² Мадаев О. Иншо қандай ёзилади. Тошкент. Ўқитувчи .1991.

O'qituvchi imlosini bilgan so'zda xatoga yo'l qo'yish o'z taqdiriga befarq qarash bilan teng ekanligini alohida uqtirmog'i lozim. Tajriba shuni ko'rsatadiki, o'quvchi mas'uliyatni his qilib ishga kirishgandan boshlab yozma ishlardagi imlo xatolari xiyla kamaya boradi.

Insho nazariyasi haqida ma'lumot berganda «insho» so'zining ma'nosini sharhlash yaxshi natija beradi. Xususan, o'zbek tilining izohli lug'atlarida «insho» so'zi, birinchidan, paydo qilish, yuzaga keltirish; ikkinchidan, ijod, sochma asar; uchinchidan, yozuv, xat, vujudga keltirmoq, yozmoq, bitmoq³ ma'nolarini bildirishi aytiladi. Insho yozish ma'lum mavzu yuzasidan mustaqil fikrni yozma tarzda ifodalash ekani tushuntiriladi. Bunday sharhning muhim ahamiyati shundaki, o'quvchi insho yozish ijod qilish ekanligini anglab oladi. Ishning dastlabki bosqichidanoq insho birovning fikrini, darslikdagi ma'lumotni ko'chirish emas, balki mavzu haqida mustaqil fikr yuritish mahsuli ekanligiga "urg'u" beriladi. Sinf saviyasiga qarab «insho» so'zining avvalgi ma'nosi hozirgi kunda toraygani qayd etiladi. Avvallari biron shaxs tomonidan yozilgan har bir mavzu insho deb tushunilgan. Maktublar, ilmiy asarlar, shaxsiy arxivda saqlanuvchi kundaliklar «insho» atamasi bilan yuritilgan. Hozirda esa, asosan, o'zbek tili va adabiyoti fani yuzasidan ma'lum mavzuga bag'ishlangan yozma ishlar mazkur atama bilan yuritiladi. Demak, «insho» atamaning ma'nosi hozirgi vaqtda toraygan. Bunday ma'lumotlarni o'qituvchi lozim topsagina o'z o'quvchilariga aytishi mumkin.

Insho nazariyasida yoziladigan mavzularni mazmun jihatdan turlarga ajratish ham muhim ahamiyatga ega, o'zbek tili va adabiyoti bo'yicha yoziladigan insholar uch turga bo'linadi:

- 1. Adabiy mavzudagi insholar.**
- 2. Adabiy-ijodiy mavzudagi insholar.**
- 3. Ijodiy yoki erkin mavzudagi insholar.**

1. Adabiy mavzudagi insholarga o'qituvchi tomonidan dars mashg'ulotlarida tushuntirilgan va adabiyot darsligida qayd qilingan mavzular kiradi. "Abdulla

³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Тошкент, Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 2 жилд. 2008 й.

Qodiriy – tarixiy romanlar ustasi ”, “ Erkin Vohidov – lirik shoir ” kabi mavzular adabiy mavzudagi insholarga misol bo’ladi.

2. Adabiy-ijodiy mavzulardagi insholarni yozishda esa, bir tomondan, darsda alohida mavzu sifatida- olingan ma’lumotlar, ikkinchi tomondan, sinfdan tashqari o’quvchi o’zlashtirgan materiallar haqida fikr yuritish talab qilinadi. Birinchi turdagi insholarni yozishda o’quvchining mustaqil fikrlashi nisbatan chegaralangan bo’ladi. Ammo bu mulohaza ularda mustaqil fikrlash talab qilinmas ekan, degan xulosaga olib kelmasligi lozim. Ikkinchi turdagi insholarda o’quvchining mustaqilligi yorqinroq seziladi. Chunki ularni yozishda o’quvchining mavzuga munosabati yetakchi ahamiyat kasb etadi.

«Muhammad Yusuf she’rlarini sevib o’qiyman», «Samandar — men sevgan qahramon» (“Sabo va Samandar) kabilar adabiy-ijodiy mavzularni tashkil etadi.

3. Ijodiy (erkin) insholar bevosita adabiyot fani dasturida qayd etilmagan mavzularda yoziladi. Badiiy adabiyotning muxlisi sifatida o’qilgan asarlari haqida, vatan, do’stlik, sport to’g’risida, kasb-hunar tanlash mavzuida yoziladigan insholar shular jumlasiga kiradi.

Ish jarayonida o’quvchilarga har uchala turdagi insholarni yozish yo’llarini o’rgatishimiz zarur. Ammo asosiy e’tibor adabiy mavzularga qaratilishi maqsadga muvofiqdir. Chunki, odatda, adabiy mavzulardagi insholarning yozilishini yaxshi o’zlashtirgan o’quvchi adabiy-ijodiy, ijodiy insholarni yozishda u qadar qiyinchilik sezmaydi. Bitiruv ishimizning keyingi bobida har bir turdagi inshoni yozish yo’llari haqida alohida to’xtab o’tamiz.

O’quvchilar insho yozish malakasini hosil qilishlari davomida mavzu, reja, epigraf, tezis, dalil, xatboshi kabi atamalarning ma’nosini ham o’zlashtirib olishlari kerak.

Inshoda mavzuning tutgan o’rni

Mavzu inshoning nima haqida yozilishini belgilaydi. Mavzu o’quvchiga tushunarli tarzda tuzilishi lozim. Odatda, insho mavzusi sodda va atov gaplardan tuziladi. Uning aniq va izchil tarzda tuzilishi inshoning ijobiy natijasini ta’minlaydi. Mavzu bilan tanishgan o’quvchi inshoning kompozitsiyasini,

tuzilishini, nimalar haqida fikrlash lozimligini tasavvur etishi kerak. Aks holda, insho mavzudan tashqari masalalarga bog'lanib qolishi mumkin.

Insho mavzularini tavsiya etishda o'quvchilarning bilim saviyasini, qiziqishini, adabiy asarlarning qanchalik o'zlashtirilishini hisobga olish kerak. Qachonki, o'quvchi o'zining bilimi, qiziqishi va saviyasiga mos mavzu tanlasa insho muvaffaqiyatli chiqadi.

Reja tuzish

Inshoning rejasini tuzish uni yozish jarayonidagi eng muhim bosqichlardan biridir. Zero, dengizda ketayotgan kemalar qirg'oqdagi mayoqqa qarab o'zlariga yo'l belgilanganligi singari insho yozayotgan shaxslar ham ma'lum bir reja asosida o'zlarining fikr va mulohazalarini qog'ozga tushura boshlaydilar. Yaxshi tuzilgan reja inshoning izchilligini ta'minlaydi, o'quvchi reja asosida qaysi fikrdan keyin qaysisini bayon qilishni aniq his qilib turadi. Har tomonlama o'ylab tuzilgan, o'zida insho mavzusining hamma jihatlarini yaqqol aks ettirib turgan reja yarim insho demakdir. U inshoning nihoyatda ixcham, lo'nda shakllardagi o'ziga xos ko'rinishidir. Ma'lumki, umumta'li va o'rta maxsus talimdagi insho rejasi xarakter jihatdan ikki xil bo'ladi: *a) sodda reja; b) murakkab reja.*

O'quvchi reja turini yozilayotgan mavzuning xususiyatiga qarab tanlaydi. Sodda rejani murakkab rejaga qarama-qarshi qo'yish, birini ikkinchisidan afzal deb bilish to'g'ri emas. Gap rejaning qaysi turini tanlashda emas, uni qay tarzda tuzishdadir. Insho mavzulari mazmun va yo'nalish jihatidan turlicha bo'ladi. Adabiy mavzularda ko'proq murakkab reja tuzish ma'qul bo'lsa, adabiy-ijodiy va ijodiy mavzularda insho yozishda sodda reja tuzish ma'qul. Undan tashqari, mavzu mumtoz adabiyot yoki zamonaviy o'zbek adabiyoti materiallari haqida bo'lishi mumkin, yoki yozuvchi hayoti, ijodi, badiiy asarning g'oyaviy mazmuni, asardagi qahramonlarga tavsif berishni talab qiladigan mavzular bo'ladi. Agar badiiy asarning g'oyaviy mazmunini yorituvchi inshoga sodda reja tuzish ko'proq mos kelsa, obrazlarga tavsif berishni taqozo etadigan mavzularga murakkab reja tuzish ma'qul. Inshoning rejasini tuzishdan avval mavzuni yoritish uchun qanday masalalarga e'tibor berish lozimligini o'quvchi mustaqil aniqlashi va o'z xohishiga

ko'ra reja ko'rinishini tanlashi lozim.

Akademik litsey va kasb hunar kollejlarda ayrim o'qituvchilar sodda rejaga qarshi chiqadilar. Mavzuning xususiyatidan qat'iy nazar, o'z talabalaridan murakkab reja tuzishni talab qiladilar. Bu to'g'ri emas. O'quvchidan mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishni juz'iy masalalarni hal qilishdan boshlash kerak. Xususan, bu vazifani reja tuzishdan boshlasa ham bo'ladi. Chunki keyingi paytlarda murakkab rejani tuzish shablonlashib qoldi. Ko'pchilik insho rejalarini bir-biridan farqlash qiyin bo'lib bormoqda. Sodda reja esa ana shu bir xillik an'anasini ma'lum darajada buzadi, o'quvchini fikrlashga majbur qiladi, deb o'ylaymiz. Shuningdek, bunday reja namunalarini insho mazmunining nihoyatda ixchamlashtirilgan shakllari deyish ham mumkin, negaki, yaxshi tuzilgan soda rejalar inshoning yo'nalishi, tarkibiy qismlari, mavzuning izchilligi haqida aniq bir tasavvurlarni berishi turgan gap. Sodda ko'rinishdagi rejaga namuna sifatida quyidagi mavzu reja tuzilishini ko'rib chiqamiz.

Mavzu: Do'st bilan obod uying.

Reja.

1. Do'stlik so'zining ma'nosini men qanday tushunaman?
2. Do'st boshga kulfat tushganda sinaladi.
3. Do'stlik, birodarlik insoniyatni taraqqiyotga yetaklaydi.

Qayd qilganimizdek, reja insho mazmunining asosini tashkil etadi. Binobarin, reja bilan tanishishning o'ziyoq yozma ishning saviyasi, mazmuni haqida tasavvur hosil qiladi. Masalan, «A. Qahhor — hikoyanavis» mavzusini olaylik.

Bir o'quvchi bu mavzuni yoritish uchun quyidagicha reja tuzdi:

I. Kirish: Abdulla Qahhorning hayoti va ijodi.

II. Asosiy qism:

1. «Bemor».
2. «O'g'ri».
3. «Asror bobo».

III. Xulosa.

A. Qahhor hayoti va ijodining ahamiyati.

Ikkinchi o'quvchi shu mavzuga quyidagicha reja (murakkab) tuzdi;

I. Kirish:

1. Hikoya o'zbek adabiyotidagi yetakchi janrlardan biridir.
2. A. Qahhor ijodining o'zbek hikoyachiligida tutgan o'rni.

II. Asosiy qism:

1. Yozuvchi hikoyalarining mavzu doirasi.
2. O'tmish hayot tasviri A. Qahhor hikoyalarining asosiy mavzularidandir.
3. Yozuvchining obraz yaratish mahorati.
4. A. Qahhor hikoyalarining o'ziga xos xususiyatlari.

III. Xulosa:

1. A. Qahhor — mohir so'z ustasi.
2. A. Qahhor hikoyalarini sevib o'qiyman.

Bir mavzuga tuzilgan ikki xil rejaning sifati bir-biridan tamoman farq qiladi. Birinchi o'quvchining insho rejasi hatto oddiy talablarga ham javob bermaydi. Rejada yozuvchi hikoyalariga oid qanday masalalar yoritilishi deyarli aks etmagan. Faqat uchta hikoya haqida qisman fikr yuritilishi talab etiladi, xolos. Ikkinchi rejaning muallifi masalaga ancha jiddiy yondashgan. U tuzgan reja tavsiya etilgan mavzuning mazmunini keng yoritish imkonini beradi. Bu rejadagi asosiy qismga tegishli moddalar, xulosadagi ikkinchi modda ajratilib tartiblashtirilsa, sodda rejaning nusxasi hosil bo'ladi.

Inshoga tayyorgarlik ko'rilayotganda reja mavzuga mos bo'lishi haqida alohida tushuncha beriladi. Ko'p hollarda o'quvchi tavsiya etilgan mavzuga emas u o'zi biladigan materialga suyanib reja tuzadi. Agar inshoda, masalan, A. Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romanida xonlik tuzumi illatlarining fosh etilishi haqida yozish talab qilinsa, o'quvchi o'zini qiynab o'tirmay, Anvar va Ra'no obrazlariga tavsif berishni mo'ljallab reja tuzadi. Demak, o'quvchi mavzuning mohiyatini yaxshi anglab yetmay, insho yozishga yetarli tayyorgarlik ko'rmay turib ishga kirishadi. O'qituvchi mavzuga mos bo'lmagan insholarning kamchiliklarini xatolar ustida ishlash mashg'ulotida ko'rsatib beradi. Ayrim o'quvchilar erkin mavzudagi insholarni yozishda reja tuzish shart yo shart emasligini qayta-qayta so'rashadi.

Ularga bunday inshoga reja tuzish murakkabroq bo'lgani sababli inshoni rejasiz yozish qulay tuyuladi. Biz bu tushunchaning noto'g'ri ekanligini, rejasiz yozilgan inshoda fikrni izchil bayon etish mumkin emasligini anglatishimiz, erkin mavzuga reja tuzish yo'llari bilan o'quvchilarni tanishtirishimiz lozim.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, deyarli o'quvchilarning ko'pchiligi, insho yozganda oddiy reja bilan murakkab rejadagi tinish belgilarini to'g'ri qo'llay olmaydilar. Odatda reja oddiy bo'lsa, "Reja" so'zidan keyin nuqta (.), murakkab reja bo'lsa ikki nuqta (:) qo'yiladi. Shuningdek, murakkab rejada 3ta turoqli qismlar bo'lib, ular: kirish, asosiy qism va xulosadir. Maktab darsliklarida, "Kirish" va "Xulosa" so'zlaridan keyin odatda, nuqta (.) qo'yilsa, "Asosiy qism"dan keyin hamisha ikki nuqta (:) qo'yiladi. Ayonki, kirish va xulosaning bitta bo'limdan tuzilgani sabab, bunday holatda hamisha nuqta (.) qo'yiladi. Shu o'rinda aytish joizki, agar insho rejasi kengaytirilsa, ya'ni "Kirish" va "Xulosa" qismlari ham bittadan ortiq bo'limni o'z ichiga qamrab olsa, bunday holatda bu so'zlardan keyin ikki nuqta (:) qo'yiladi. Qanday rejada insho yozish – bu o'quvchining o'ziga havola. O'ziga murakkab rejani tanlagan o'quvchining qobiliyati yuqori, iste'dodli ekanligidan darak beradi. O'quvchi insho yozar ekan rejaga izchillik bilan rioya qilishi va har bir bandda aytilgan fikrlarni ixcham va badiiy shaklda asoslashi zarur.

Har bir o'quvchi rejaning maqsadga muvofiq tuzilishi insho yozishni ancha qulaylashtirishini to'la anglab yetsa, yozma ish yozish malakasini singdirishi ham shuncha osonlashadi.

Inshoning asosiy matni ustida ishlash

Inshodagi **"Asosiy qism"** ishning butun mazmunini, g'oyaviy uyg'unliklarini va yo'nalishlarini, o'quvchilarning dunyoqarashini, fikrlash doirasini o'zida yaqqol ifodalab turuvchi bo'lim sanaladi.

Odatda, inshoning **"Kirish"** qismida yozuvchining hayoti va ijodi bo'yicha umumiy, qisqa va aniq gaplarni bitish maqsadga muvofiqdir, shuningdek, bu qismda ma'lum bir asarning yaratilish tarixi yoki g'oyaviy yo'nalishlari haqida ham yozilishi mumkin.

Asosiy matnda esa o'quvchilarning ma'lum bir insho mavzusi yuzasidan mulohazalari, fikrlari o'z aksini topmog'I darkor bo'ladi, shuning uchun ham insho yozayotgan shaxslarga o'zlari uchun aniq bo'lmagan, mavhum mavzular bo'yicha yozma ish yozish tavsiya etilmaydi. Shunisi qiziqki, aksariyat o'quvchilarimiz adabiyotimiz tarixida muhim o'rin tutgan mashhur asarlarni o'qimay turib ham ulardagi timsollar yoki asarning mazmuni haqida insho yozishga kirishaveradilar, natijada ular asarni yaxshi bilmaganliklari uchun ko'plab chalkashliklarga, noaniqliklarga yo'l qo'yadilar. Bunday salbiy holatlarga duch kelmaslik uchun o'quvchilar birinchi navbatda, darsliklardagi materiallardan yaxshi xabardor bo'lishlari lozim. Shundagina o'quvchilar inshoning asosiy ismida mavzu yuzasidan o'zlarida hosil qilingan bilim va ko'nikmalarni hech qiynalmasdan, batafsil bayon qila oladilar.

Yozuvchining ijodi bo'yicha fikr va mulohazalar bildirilayotganda, timsollarga tavsif berilayotganda shoshmashosharlik bilan ish tutish, chala fikrlarni bayon etish yaramaydi. Aytilayotgan fikrlar she'riy va nasriy parchalar bilan asoslangan taqdirdagina insho mazmuni risoladigidek bo'lishi mumkin.

Har bir so'zni o'z o'rnida qo'llash, og'zaki so'zlashuv uslubiga va shevaga xos so'zlardan qochish, adabiy til me'yorlariga rioya qilish inshoning qimmatini oshiradi.

Yozilayotgan har bir gapda o'quvchining ijodkorligi, mustaqil fikrlash barq urib turmog'I kerak.

Inshoning **“Xulosa”** qismida esa o'quvchilarning insho mavzusi bo'yicha umumiy xulosalari, mazmunning hozirgi davr bilan bog'liq jihatlari, asarning tarbiyaviy ahamiyati, timsollarning zamondashlarimiz uchun namunaviy tomonlari haqida fikrlar yuritiladi.

Xullas, insho yozish o'quvchidan, birinchi navbatda, bilim va malaka, e'tibor, mustaqil fikrlash hamda ijodkorlikni talab qiladi.

E p i g r a f – muxtasar bayon

Bu soʻzning maʼnosiga “Oʻzbek tilining izohli lugati” da shunday taʼrif beriladi: «Epigraf – adabiy asar yoki asar qismining boshida beriladigan va uning mazmunini ifodalaydigan sitata, ibora, maqol va shu kabilarni anglatadi⁴.” Inshoda ham epigraf mavzuning mazmunini muxtasar tarzda ochib beruvchi, uning gʻoyasini anglatuvchi hikmatli soʻz, sitata, maqol va shu kabilar boʻlishi mumkin. Demak, epigraf, mavzudan soʻng oʻng tarafga yozilishi zarur. Lekin M. Qodirov, H. Neʼmatov va boshqalar hammualliflikda nashr etilgan 8-sinflar uchun moʻljallangan “Ona tili” darsligida epigrafni rejadan soʻng, matndan oldin yozilishi maqsadga muvofiqligi aytilgan. Muhimi, epigrafni matnning qayeridan oʻrin olishi emas, balkim uning mavzuga mos tanlanishidir, yaʼni, maʼlum maʼnoda epigraf mavzuning gʻoyasini, uning mazunini ochib beroishga xizmat qilishi lozim.

Epigrafdan oʻquvchilar insho yozishda foydalanadilar. Ammo ular tanlagan epigraflar hamisha ham inshoning mazmuniga mos kelavermaydi. Oʻqituvchi, epigraf - inshoning mazmunini oʻzida mujassamlashi keragligi haqida maʼlumot beradi. Har bir inshoda epigrafdan foydalanish shart, degan notoʻgʻri fikrga chek qoʻyish kerak. Epigraf oʻquvchining insho mavzusiga masʼuliyat bilan tayyorgarlik koʻrganligidan, unda aytmoqchi boʻlgan fikrini aniq tasavvur qilganligidan dalolat beradi. «Adabiyot — hayot darsligi», «Sanʼatsiz hayot vahshiylikdir» kabi mavzular mohiyatini umumiy tarzda ifodalovchi epigraflarni yozish maqsadga muvofiq emas. Shuning uchun oʻqituvchi faqat inshoning saviyasini koʻtarishga xizmat qilgan epigraf yozgan oʻquvchilarni ragʻbatlantiradi.

Oʻquvchilar «Hamid Olimjon — shodlik va baxt kuychisi» mavzusidagi inshoga:

«Shodlik yoʻlga boshladi meni, Baxtiyorlik boʻldi
odatim, Shuning uchun shodlik va baxtni kuylamaklik
zoʻr saodatim

(H. Olimjon.)

⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Тошкент, Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 2008 й. 5 жилд. 43-бет.

«Mehnat — baxt keltirar» mavzusidagi inshoga: «Mehnat — mehnatning tagi rohat» maqolini epigraf qilib keltiradilar. Bizningcha, ular topgan she'riy misralar va maqol inshoning mazmuniga mos keladi va bu epigraflar inshoning saviyasini ko'tarishga xizmat qiladi. Xullas, inshoga epigraf tanlash tamoman ixtiyoriydir. Ammo, inshoda epigraf keltirilishi o'quvchining bilim saviyasi boshqalarnikidan yuqoriroq ekanligini ko'rsatishga xizmat qiladi. Buning qanchalik ahamiyatliligini esa o'quvchilarga yetkazish shu soha vakillarining vazifasidir.

Tezis, dalil, sitata va xatboshi

Tezis inshoda bayon qilinadigan asosiy fikrdan iborat. Tajribali o'qituvchilar o'z o'quvchilarida inshoning tezisini tuzish malakasini hosil qilishga alohida e'tibor bilan qaraydilar. Odatda, rejada keltirilgan moddalar biroz sharhlanganda insho tezisiga aylanadi. Yani, tezis inshoda aytmoqchi bo'lgan fikrlar yig'indisi, ishning tayanch suyagidir.

Keyinchalik ana shu *tezisdagi fikr kengaytiriladi va dalillanadi*. Natijada inshoning matni rejada qayd qilingan moddalar, moddalar sharhlangan tezislari, ularning kengaytirilgan izohi, dalillar va xulosalardan iborat bo'ladi. Go'yo, tezis uyniing devorlari bo'lsa, dalillar uning bezagi va jihozlaridir.

O'quvchilar o'z fikrlarini dalillashni og'zaki savol-javob jarayonida o'rganadilar. O'quvchining o'tilgan mavzu haqidagi fikri albatta adabiy materialdan misol keltirilgan holda dalillanadi. Dalil keltirishning zarurligi o'quvchida bevosita birinchi manbaga murojaat qilish majburiyatini yuklaydi. O'qituvchi ish faoliyatida dalillash san'atini yaxshi egallagan bo'lsa, o'quvchilarni dalillash usullari bilan tanishtirib borsa, yozma ishni yozishga o'rgatish ancha osonlashadi. Masalan, G'.G'ulomning "Sen yetim emassan" she'ri haqida gap borganda, 2 – jahon urushi bilan bog'liq hodisalar ko'z oldimizda gavdalanadi. Bu jarayon insho yozishda ham muhim hisoblanadi: o'quvchi ma'lum mavzu yuzasidan kengroq mulohaza yuritishi va dalillashni o'rgana boradi.

Inshoda dalillash ayniqsa lirik yoki liro-epik asarlar haqida mulohaza

yuritilganda zarur hisoblanadi. O'quvchi biron shoirning ijodi haqidagi fikrlarini sahifa-sahifa yozgani holda uning qalamiga mansub she'riy parchalardan namuna keltirmasa, insho mazmunan qashshoq chiqadi.

Yozuvchi, shoir, adabiyotshunoslarning asarlaridan aniq keltirilgan dalil sitata deyiladi. Afsuski, hamma o'quvchilar ham sitatada muallif so'zlarini sira o'zgartirmasdan, aynan keltirish kerakligini yaxshi bilmaydilar. O'qituvchi sitata yozma ishni bajarayotgan shaxs tomonidan juda aniq keltirilgandagina qo'shtirnoq orasiga olinib, ko'chirma gap tarzida berilishi lozimligini uqtirishi kerak. Ba'zan she'ring mazmunini ifodalovchi jumlar o'quvchi tomonidan noto'g'ri ravishda qo'shtirnoq orasiga olinadi. Masalan, G'. G'ulomning «Sen yetim emassan» she'ri tahlilida G'. G'ulom «Haqiqiy yetimlikni men boshimdan kechirganman» deb aytadi» kabi jumalarni o'qiymiz.

Vaholanki, shoir:

Men yetim o'tganman, Oh, u yetimlik...

Voy bechora jonim, desam arziydi, —

degan edi. Bunday hollarda biz shoirning biron so'z yoki iborasini aniq keltirolmagan o'quvchi o'z dalilini o'zlashtirma gap shaklida yozishi mumkinligini aytishimiz kerak. O'zlashtirma gap inshodagi dalilning qimmatini mutlaqo tushirmaydi, muallifning fikriga deyarli teng turadi.

Xatboshi

Insho yozish malakasini hosil qilinishida xatboshi haqida ma'lumot berish ham talab etiladi. «Xatboshi — bosma yoki yozma matnda xatning birinchi qatoridan joy tashlab boshlash⁵», deyilgan «O'zbek tilining izohli lug'ati»da. Har bir yangi fikr satr boshidan boshlanadi. Binobarin, xatboshi yozma ish muallifning mulohaza yuritayotgan masala yuzasidan yangi fikr bayon etayotganini bildiradi. Inshoda, juda bo'lmaganda, rejada qayd etilgan alohida moddalar yuzasidan bayon etilgan fikr xatboshida boshlanadi. Demak, inshoda jami 5 modda berilgan bo'lsa, o'quvchi kamida besh marta xatboshidai yozishi lozim. Ba'zan moddaning ichki qismida bir necha fikr bayon etiladi. Ularning har biri ham xatboshidan

⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Тошкент, Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 2008 й. 5 жилд.

boshlanadi. Xatboshi o'quvchida bir mulohazani yakunlab, ikkinchisiga o'tish malakasini hosil qilishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, inshoning izchil, reja asosida yozilishini ta'minlovchi omillardan hisoblanadi.

Xullas, o'quvchilarga insho yozishni o'rgatishning dastlabki bosqichi insho nazariyasi haqida dastlabki ma'lumot berishdir. Bu ko'nikmalar tobora mustahkamlanib boriladi.

II BOB. INSHO YOZISHGA TAYYORGARLIK

Insho materiali bilan tanishish

Akademik litsey va kasb hunar kollejlarida adabiyot fanidan mashg'ulotlarni olib borayotgan o'qituvchi bevosita fan asoslarini o'quvchilarga tushuntirishni boshlashdan avval ularning bilim darajalarini aniqlab oladi. Odatda, bu tadbir 5—9-sinflarda o'rganilgan materiallar yuzasidan suhbat o'tkazish, o'quvchilar nutqida qo'llangan ayrim so'zlarni taxtaga yozdirish, sinfdan tashqari o'rganilgan badiiy adabiyotlarni so'rab-surishtirish, ayrim o'quvchilarga she'r yodlatish va, nihoyat, diktant o'tkazish orqali amalga oshiriladi. Sinf kontingenti o'qituvchining tekshiruvidan o'tgandan so'ng mashg'ulotlarni uyushtirish rejasi tuziladi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, dastur bo'yicha rejalashtirilgan muddatda oldindan tayyorgarlik ko'rmagan holda insho olish yaxshi natija bermaydi. Xususan, umumta'lim maktabning 9-sinfini tugatib kelgan o'quvchi o'zbek mumtoz adabiyotidan xronologik tamoyil asosida ma'lumotga ega bo'lib, akademik litseyga o'qishga kirgan. O'qituvchi dastlab unga dasturga oid o'zbek adabiyoti materiallarini tushuntira boshlaydi. U adabiyotning so'z san'ati ekanligi haqida ma'lumot beradi.

Agar o'quvchi badiiy adabiyotning tarbiyaviy roli haqida uch-to'rt gap tuza olsa, o'qituvchi o'z maqsadiga erishgan hisoblanadi. O'quvchilarda insho yozish malakasini hosil qilishda badiiy matnning mukammal o'qib chiqilishiga erishish juda muhim omildir. Afsuski, ko'pincha o'quvchilar badiiy asarlarni o'qimaganlari holda, ular haqida insho yozishga kirishishdan cho'chimaydilar. Adabiy mavzularda yozilayotgan insholarning mazmuni deyarli bir xil ekanligi, asosan, o'qish-o'qitish sohasidagi ana shu kamchilik bilan ham izohlanadi. Darsda o'rganiladigan har bir asarni, avvalo, o'qituvchining o'zi o'qib chiqqan bo'lishi va hamma o'quvchilarning o'qishiga ham erishishi zarur. Odatda, badiiy matn ustida dastur bo'yicha asarning o'rganilish fursati yetib kelgandan boshlab ishlanadi. Bizningcha, bu jarayonni bir oz oldinroq boshlash maqsadga muvofiqdir.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, dastlab o'rganiladigan badiiy asarlarning hamma o'quvchi tomonidan to'la o'qilishiga erishish o'qituvchidan katta mehnat talab qiladi. U har bir mashg'ulotida yoki darsdan tashqari vaqtda asarning

o'qilayotgani haqida ma'lumot olishi, uni daftarga qayd qilishi lozim. Ba'zan o'quvchilar bilan romandagi qiziqarli epizodlardan biri haqida munozara yuritishga to'g'ri keladi. O'quvchining asarni o'qigani haqidagi ma'lumotni tekshirib ko'rishi ham talab qilinadi. Hajm jihatdan katta bo'lgan birinchi asarni butun sinf to'liq o'qib chiqsa, keyingi badiiy asarlarni o'qish ancha yengillashadi. Eng muhimi, o'qituvchi o'z topshirig'ining bajarilishini qat'iy turib talab qilishdadir. Badiiy asar matnining to'liq o'qib chiqilishi asar matni ustida ishlash mashg'ulotlarning muvaffaqiyatli chiqishiga zamin hozirlaydi. Asar matni bilan tanishgan o'quvchi uchun xrestomatiyadagi matnni, asarning umumiy yo'nalishini, g'oyasini, obrazlar tizimini, mavzusini tushunish u qadar qiyinchilik tug'dirmaydi. Dastlab darslikda alohida fikr yuritilmagan obrazlar haqida uy inshosini topshirish ham yaxshi natija beradi. Vaqt imkoniyatidan kelib chiqqan holda bu inshoni ham o'qituvchi frontal o'qittirishi va o'quvchilar fikrini aniqlashi mumkin

Bu fikrlar o'quvchining mustaqil fikrlay boshlaganidan dalolat beradi. yozuvchining mahorat sirlari kalitini topishiga harakat qilganini ko'rsatadi. O'qituvchi bunday fikrlashni boshlagan o'quvchini rag'batlantirishi, uni qo'llashi, boshqa bolalarni ham shunday fikrlashga chaqirishi lozim.

Dastur bo'yicha yoziladigan insholardan avval o'quvchilarni har bir yozuvchi asari haqida ana shunday xarakterdagi yozma ishlar yozishga odatlantirish kerak.

Insho bosqichlari (inshoning xomaki va asl nusxasi)

Insho quyidagi ikki bosichni o'z ichiga oladi.

1. Inshoning qoralama (xomaki) nusxasini tayyorlash.
2. Uni oqqa ko'chirib yozish.

Inshoning qoralama nusxasi ishning dastlabki bosqichi bo'lganligi uchun unda o'chirilgan, so'zlarning o'rni almashtirilgan, jumlar tuzatilgan o'rinlarning bo'lishi tabiiy. Qoralama nusxadagi bunday tuzatishlar ish tekshirilayotganda xato hisoblanmaydi va ular hisobga olinmaydi. Insho tekshiruvchi, hatto ba'zi bir paytlarda oq nusxadagi jumalarning g'alizligini aniqlashtirish maqsadida

qoralama nusxaga uni solishtirishi, agar unda jumla to'g'ri tuzilgan bo'lsa, oq nusxadagi xatoni hisobga olmasdan ketishi ham mumkin. Bu esa amaldagi qoidalariga muvofiq bo'ladi. Qoralama nusxada ham insho uchun reja tuziladi. Fikrlar izchillik asosida, aniq va lo'nda shakllarda bayon qilinadi. Qoralama nusxada haddan tashqari bo'yab, inshoni o'ta e'tiborsizlik bilan yozish maqsadga muvofiq emas.

Xomaki nusxani yozishda quyidagi holatlarga diqqatni qaratish tavsiya etiladi.

1. Qaysi mavzu bo'yicha insho yozishingizni puxta o'ylab oling. Nimalar haqida yozish lozimligi ustida bosh qotiring.
2. Insho mavzusiga oid materiallarini, masalan, yozuvchi, uning hayoti va ijodi, yozgan asarlari, siz yozmoqchi bo'lgan asar va uning yozuvchi ijodida tutgan o'rni, asarning mavzusi va g'oyaviy yo'nalishlari, bosh qahramonlari, asardagi voqealar, asar qahramonlarining xarakteri yuzasidan insho yozish uchun birinchi galda kerak bo'ladigan holatlarni eslang, so'ngra ularni qog'ozga tushira boshlang.
3. Insho bo'yicha eng ko'p ishlatiladigan so'zlarni yig'ib chiqing.
4. Insho mavzusini yoritish uchun o'zingizga ma'qul kelgan usulni tanlang.
5. Insho uchun reja tuzib oling va mazkur reja asosida insho yozishga kirishing.
6. Insho yozayotganda fikrlarning izchilligiga insho materiallarning aniq va lo'nda shakllarda berilayotganligiga alohida e'tibor berib boring.
7. Inshoning qoralama nusxasi tayyor bo'lgach, uni diqqat bilan o'qib chiqing. O'qiyotganingiza quyidagi holatlarga e'tibor bering. Insho mavzusi yetarlicha yoritilganmi? Inshoning mazmuni talabga javob beradimi? Inshoda ortiqcha jumla va so'zlar uchramaydimi? Agar shunday holatlarga duch kelsangiz, ularni insho matnidan chiqrib tashlang, bo'sh ko'ringan o'rinlarni to'ldiring.
8. Inshoning tiliga alohida diqqat qiling.
9. Yozganlaringizni oqqa ko'chiring.

Inshoning qoralama nusxasi but bo'lgach, uni oqqa ko'chirish jarayonida amaldagi husnixat qoidalariga va insho yozishning o'ziga xos tartibotlariga qat'iy rioya qilish kerak. Inshoning oq nusxasida o'chirilgan va ustiga yozib qo'yilgan joylar bo'lmasligi lozim.

Inshoning sarvarag'iga o'quvchining ism-sharifi yoki unga aloqador bo'lgan so'zlar amaldagi tartib-qoidalar asosida yozib qo'yilishi shart. Insho ustiga turli xil belgilar qo'yilmaydi.

Agar talaba va o'quvchilar tomonidan maqsadli ravishda yuqoridagi qoidalarga amal qilinmagan bo'lsa, bunday insholarga "qoniarsiz" baho qo'yiladi.

Insho yozib bo'lingandan so'ng u o'quvchi tomonidan diqqat bilan o'qib chiqiladi va har ikkala nusxa birgalikda o'quvchiga topshiriladi.

O'quvchilarga belgilab berilgan insho mavzularidan tashqariga chiqish, insho mavzularini o'zboshimchalik bilan o'zgartirish, o'zlari xohlagan mavzu bo'yicha insho huquqlari berilmaydi. Inshoni baholash paytida oq nusxadagi mazmun va savodxonlik hisobga olinadi.

Insho bayonidagi topqirlik

Insho yozishga tayyorgarlik ko'rishda o'quvchi og'zaki javobda qanchalik mukammal bilimga ega ekanligini ko'rsata olsa, uning inshosi ham shunchalik mazmunli bo'ladi.

O'qituvchi yangi mavzuni reja asosida o'tishi, aytilishi lozim bo'lgan fikrlarning rejasini o'quvchilarga tavsiya etishi lozim. O'quvchilar og'zaki javobga ana shu reja asosida tayyorlanadilar. Asta-sekin ularda mustaqil reja tuzish malakasi hosil bo'la boradi. Bu yozma ish yozishga o'rgatishda muhim hisoblanadi. O'qituvchi bunda bir necha usuldan foydalanishi mumkin. Masalan, biron obrazga tavsif berish maqsadida reja tuziladi, deylik. O'quvchi ana shu rejaning har bir moddasiga birma-bir javob beradi. O'quvchilarda ma'lum malaka hosil bo'lgandan so'ng esa rejadagi biror modda ixtiyoriy ravishda tanlab olinadi va faqat ana shu moddaga javob berish darsi uyushtiriladi. Eng muhimi, inshoga tayyorlanish jarayonida maktab darsligidagi fikrlarga bog'lanib qolmaslik, erkin fikrlashga intilishdir. Boshqa badiiy asarlardagi qahramonlarni eslash, badiiy matnda mavjud bo'lgan, ammo darlikda qayd etilmagan epizodlarga murojaat qilish ma'qul. Masalan, Oybekning «Qutlug' qon» romanini o'rganishda Mirzakarimboy obrazi haqida fikr yuritiladi. Bu obraz haqida insho yozdirish ham

mumkin. O'qituvchi Mirzakarimbryning razilligi haqida fikr yuritib, uni Qora Ahmad bilan solishtiradi. Qora Ahmad chapani, yo'lto'sar, butun umri mushtumzo'rlik bilan o'tgan. Ammo u Yo'lchining mardligiga tan beradi va Gulnorni topishga yordamlashadi. Yozuvchi bu o'rinda Mirzakarimboy Qora Ahmaddan ham razilroq shaxs ekanini tasvirlaydi, yoki o'qituvchi o'quvchilarga shunday savol bilan murojaat qilishi mumkin. O'quvchilarning fikrlari bilan tanishgan o'qituvchi o'z mulohazalarini bayon etadi.

Bunday xulosaga o'quvchilarning munozaralari orqali erishilsa, juda yaxshi bo'ladi. To'g'ri, munozarada ayrim epizodlarni o'quvchilar eslamasliklari mumkin. Ammo bu muhim faktning o'qituvchi tomonidan eslatilishi ham badiiy asarni e'tibor berib o'qish lozimligini tushuntirishda ahamiyatlidir.

Badiiy asardagi bunday detallarga e'tibor berish insho yozishda muhim ahamiyatga ega.

O'quvchilarni insho yozishga o'rtatishda adabiy-nazariy tushunchalarning puxta egallanishiga ham e'tibor beriladi. O'quv dasturiga ko'ra akademik litsey va kasb hunar kollejlarda adabiyot darsi bevosita adabiy-nazariy tushunchalarni o'rganishdan boshlanadi. Badiiy adabiyotning so'z san'ati ekanligi haqidagi ma'lumot beriladi. Bu mashg'ulotlar badiiy adabiyotga qiziqish, unga hurmat bilan qarash tuyg'usini hosil qilishga imkon beradi. San'at hayotning badiiy in'ikosi sifatida insonning ruhiy olamiga ta'sir qiladi, uni tarbiyalaydi. So'zning insonga ko'rsatadigan sirli ta'sirini anglamay turib o'quvchi badiiy adabiyotning mo'jizalardan biri ekanini anglab yetmaydi. Adabiyotdan o'tkaziladigan tanishuv suhbatimizda xalq og'zaki ijodida Alisher Navoiy haqida yaratilgan hikoyatlardan biriga murojaat qilamiz. Bu hikoyat Husayn Boyqaroning tush ko'rganligi haqida bo'lib, tushida u baland tepalikda yakka o'zi turgan emish. Atrofida esa qarg'a-quzg'unlar uchib yurganmish. Podshoh ta'birchi munajjimlarga ko'rgan tushini sharhlashni buyuradi, Munajjimlar bir qoshiq qonlaridan kechishini iltimos qilib shunday deydilar: «Shohim, hamma qarindosh-urug'laringiz o'lib ketishar ekan. Siz so'qqabosh bo'lib qolar ekansiz». Bunday sharhni eshitgan Husayn Boyqaro bir qoshiq qondan

kechganligini ham unutib, jaholat bilan jallodni chaqiradi. Shu payt suhbat mazmunidan xabardor bo'lgan Alisher Navoiy munajjimlarning ayblarini kechishni podshohdan o'tinadi. «Shohim, — deydi u, siz juda yaxshi tush ko'ribsiz. Chunki tushingizda hamma qarindoshlardan ko'proq umr ko'rishingiz ayon bo'libdi». Husayn Boyqaroga tushining bunday sharhi ma'qul bo'libdi, kayfiyati ko'tarilib, munajjimlari kechiribdi. Aslini olganda, har ikkala sharh ham bir ma'noni anglatadi. Ammo birinchi sharhda fikr o'ta qo'pol tarzda befahmlarcha ifodalangan. Ikkinchi sharhda esa shoir munajjimlar fikrini buzmagani holda, uni inson ruhini ko'taruvchi so'zlar bilan bayon etgan.

Xalq ertak va afsonalarida bunday mazmundagi asarlarni ko'plab uchratish mumkin. O'qituvchi o'z suhbatida badiiy adabiyotning sehri so'z orqali ifodalanishini, binobarin, har bir so'zni og'zaki nutqda ham, yozma nutqda ham yaxshi o'ylab qo'llash lozimligini tushuntiradi. O'qituvchi bu suhbatda adiblar hayotni alohida hissiyot bilan idrok etishlarini ham qayd etadi, shoir va yozuvchilar hammaning dilida bor, ammo hali ayta olmagan gaplarni silliq, badiiy tarzda ifodalay olish iqtidoriga egadirlar.

O'quvchilar so'z san'atining namoyandalari va ularning asarlari xususida insho yozishi ham, fikr bildirishi ham juda mas'uliyatli ekanligini anglab yetishlari lozim.

Inshoda nazariy bilimning ahamiyati

O'quvchilarni insho yozishga tayyorlashda badiiy adabiyotning proza, poeziya, dramaturgiya, lirika, roman, qissa, she'r kabi jins va turlariga, janrlariga bo'linishi haqidagi ma'lumotni mustahkamlashi zarur. Chunki dastur bo'yicha o'rganiladigan adabiy asarlarning janrlarini bilmay turib, inshoda aniq fikr yuritish mushkul.

Shuningdek, sujet, kompozitsiya, badiiy usullarga taalluqli nazariy ma'lumotlarni bilmaslik ham bir qator tushunmovchiliklarni keltirib chiqaradi.

Xullas, o'quvchi san'at, badiiy adabiyot nazariyasiga oid tushunchalarga ega bo'lmay turib, talabga javob beradigan darajada insho yozishi mumkin emasligini unutmasligimiz zarur.

O'quvchilarda insho yozish malakasini hosil qilishda o'qituvchi

adabiyotshunoslik fani yangiliklari haqida ham tushuncha berib borishi lozim. Ma'lumki, respublikamiz matbuotida doimiy ravishda badiiy adabiyot muammolari haqida maqolalar e'lon qilinmoqda. «O'zbekiston adabiyoti va san'ati», «Toshkent haqiqati» kabi gazetalarda; «Guliston», «Sharq yulduzi», «Yoshlik», «Yosh kuch» kabi jurnallarda yoritilayotgan so'z san'atidagi dolzarb masalalari haqidagi ilmiy kuzatishlar fikrimizning dalilidir. Ulardagi ayrim fikrlar maqolalarni o'rganilayotgan mavzuga bog'lab o'qish tavsiya etiladi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, ayrim o'quvchilar gazeta va jurnallarda e'lon qilingan asarlarni o'qiydilar, ammo javoblarda ulardan foydalanmaydilar. Ko'pincha inshoda ulardan foydalanish yaxshi natija berishini, ishning saviyasini oshirishini tasavvur qilmaydilar. Adabiyotshunoslik yangiliklaridan unumli foydalanish o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini ham kuchaytiradi. Ba'zan ixcham, ammo muhim fikr bayon qilingan maqolalarni o'rganilayotgan mavzuga bog'lagan holda muhokama qilish ham mumkin. Yozuvchi mahoratiga oid mulohazalar esa o'rganilayotgan adibning ijodi bilan bog'langan holda, aniq misollarga murojaat etib sharhlanadi.

Albatta, o'quvchilarni inshoga tayyorlashda eng muhim manba hisoblangan darslikni unutmaslik kerak. Darslikda inshoda yozilishi lozim bo'lgan fikrlarning asosi bayon etiladi. To'g'ri, keyingi vaqtlarda maktab darsliklari haqida bir qator tanqidiy fikrlar aytiladi. Ammo biz bu darsliklar yaratilgan davr bilan hozirgi kun talablari o'rtasida katta farq bo'lishi tabiiyligini unutmasligimiz lozim. Ularni qayta tuzish, yangilash kun tartibidagi eng dolzarb masaladir.

III. BOB. INSHO TURLARI VA UNDAGI GRAMMATIK XATOLAR USTIDA ISHLASH

Insho nazariyasida yoziladigan mavzularni mazmun jihatdan turlarga ajratish ham muhim ahamiyatga ega ekanligi xususida birinchi bobda ham to'xtalib o'tgandik. Ta'kidlanganidek, o'zbek tili va adabiyoti bo'yicha yoziladigan insholar uch turga bo'linadi:

1. Adabiy mavzudagi insholar.

4. Adabiy-ijodiy mavzudagi insholar.

5. Ijodiy yoki erkin mavzudagi insholar.

1. Adabiy mavzudagi insholarga o'qituvchi tomonidan dars mashg'ulotlarida tushuntirilgan va adabiyot darsligida qayd qilingan mavzular kiradi.

2. Adabiy-ijodiy mavzulardagi insholarni yozishda esa, bir tomondan, o'quv dasturida alohida mavzu sifatida olingan ma'lumotlar, ikkinchi tomondan, dasturdan tashqari o'quvchi o'zlashtirgan materiallar haqida fikr yuritish talab qilinadi.

3. Ijodiy yoki erkin mavzudagi insholar bevosita o'quv dasturida qayd etilmagan mavzularda yoziladi. Badiiy adabiyotning muxlisi sifatida o'qilgan asarlari haqida, vatan, do'stlik, sport to'g'risida, kasb-hunar tanlash mavzuida yoziladigan insholar shular jumlasiga kiradi.

Adabiy mavzudagi insho

O'quvchilar tomonidan yoziladigan adabiy mavzulardagi insholarni shartli ravishda quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

1. Yozuvchi hayoti va ijodiga oid insho.
2. Yozuvchining ma'lum davr hayoti va ijodiga oid insho.
3. Yozuvchi ijodida aks ettirilgan ma'lum mavzuga oid insho.
4. Yozuvchi tomonidan ma'lum janrda yaratilgan asarlarning umumiy tahliliga oid insho.
5. Ma'lum bir asarning g'oyaviy-badiiy tahliliga oid insho.
6. Badiiy asarda aks etgan ma'lum bir masalaning tahliliga oid insho.

7. Badiiy asardagi yakka, guruh, qiyosiy obrazlar tavsifga oid insho.

Ma'lumki, o'qituvchining dars mashg'ulotlaridagi ma'ruzasi sharh va monografik xarakteri bilan bir-biridan farq qiladi. O'quvchilar yozadigan insholar ham mavzuning xususiyatiga ko'ra monografik va umumiy sharh tarzida bo'ladi. Yozuvchi hayoti va ijodi, adib ijodidagi ma'lum bir janrga oid insholar ko'proq umumiy sharh ma'lumot berishni talab etadi. Bunday insholarda sanalar, asarlar, fikr yuritiladigan masalalar son jihatdan ko'p bo'ladi. Ular haqida kengroq to'xtash uchun insho hajmi yo'l qo'ymaydi. O'quvchilar umumiy ma'lumotlarni yozish bilan chegaralanadi. Ma'lum bir badiiy asarning tahlili, ayniqsa, biror lirik she'rning g'oyaviy-badiiy tahlili, biror obrazga tavsif berish esa monografik xarakterda bo'ladi. Bunday insholar kam masala-yu chuqur tahlilni talab etadi.

Dastur bo'yicha yozuvchi hayoti va ijodiga oid mavzuda yoziladigan insholar son jihatdan ko'p bo'lmaydi. Zotan, yozuvchi hayoti va ijodiga bag'ishlangan yozma ishlar qiyin ham emas. Ikkinchidan, mazkur mavzularni yoritishda o'quvchining mustaqil fikrlash qobiliyati yaxshi namoyon bo'lmaydi. Chunki adibning hayoti va ijodi haqida mustaqil fikr bildirish darajasida ish yozish maxsus bilimga ega bo'lishni va tayyorgarlik ko'rishni talab qiladi. Shuni nazarda tutib, o'quv yili davomida o'quvchiga bir yoki ikki adib hayoti va ijodi haqida insho yozishni tavsiya etish mumkin.

Yozuvchi hayoti va ijodi haqidagi insholarda taxminan quyidagi masalalarni yoritish maqsadga muvofiqdir:

- yozuvchining adabiyot taraqqiyotiga qo'shgan hissasi.
- yozuvchining tug'ilgan joyi va yili, oilasi va yoshlik yillari.
- yozuvchi ijodining boshlanishi, asarlarining janri, mavzutikasi.
- yozuvchi ijodiga oid eng muhim asarlar.
- yozuvchining badiiy mahorati, ijodining o'ziga xosligi.
- yozuvchining adabiyot tarixida tutgan o'rni.

O'qituvchi har bir adibning hayoti va ijodiga oid ma'ruzada qayd etilgan har bir moddani izchil ravishda yoritib borsa, o'quvchilar ham javoblarida mazkur tartibga rioya etsalar, insho yozish ham osonlashadi. Afsuski, ko'pincha

o'quvchilar o'z javoblarini yozuvchi tug'ilgan yil va kun haqida ma'lumot berish bilan boshlaydilar. Yozma ishlarda ham aynan shu holat takrorlanadi. Bu to'g'ri emas. Yozma ishning kirish qismida hayoti haqida yozilayotgan adibning so'z san'ati taraqqiyotiga qo'shgan hissasi, ijodining o'rganilish sabablarini, tarixi haqida ma'lumot berish kerak. Yozuvchi ijodini o'rganishning metodologik tamoyili ko'rsatib berilmagan insho zaminidan ajragan va muallaq turgan jismga o'xshab qoladi. O'qituvchining ma'ruzasi, darslikdagi ma'lumotlar o'quvchilar yozadigan inshoning asosini tashkil etadi. Shuningdek, keyingi yillarda «Ajoyib kishilar hayotidan», «Zamondoshlar xotirasi» siklida nashr qilinayotgan kitoblarga ham o'quvchilar e'tiborini jalb qilish mumkin.

Yozuvchi va shoirning ma'lum ijodiy faoliyati, asarlari haqida insho yozish bir oz murakkab hisoblanadi. Sababi, buni mukammal o'rganmay turib yozish mumkin emas. Masalan, "Usmon Nosir she'riyati" mavzusida adabiy mavzudagi insho yozadigan bo'lsak, dastavval, uning ijodi haqida bitilgan, aytilgan fikrlardan boshlasak, masala yanada oydinlashadi. "Usmon she'riyatimizga shamolday kirib keldi. Balki bo'ronday! U shunday to'polon va to'lqin bilan keldiki, uncha-muncha she'riy uslub va ifodani to's-to's qilib yubordi. Uni o'zimizda "O'zbekning Lermontovi", Moskva gazetalarida "Sharqda Pushkin paydo bo'ldi"⁶,- deb yozishdi." Tom ma'noda bu ayni haqiqat edi. "Bo'ladigan bola boshidan ma'lum" deganlaridek, Usmon Nosir ham mashhur siymolarimiz kabi juda yoshligidan ko'p ijobiy xislatlarga ega bo'lgan edi. U ijodda yoshligidanoq iste'dodli, "tug'ma shoir" sifatida tanildi. So'ngra uning 6-7 yil ichida yaratgan beshta she'rlar to'plami "Quyosh bilan suhbat", "Safarbar satrlar", "Traktorobod", "Yurak", "Mehrim" kabilarni keltirib o'tish lozim.

Shoir she'rlarida jimjimadorlik, g'alizlik, zo'rma-zo'rakilik ko'rinmas, fikr tuyg'u soda, lekin lirik harorat bilan, jozibadorlik bilan, original tashbexlar bilan bayon qilinadi:

She'rim! Yana o'zing yaxshisan,

Boqqa kirsam gullar sharmanda.

Bir men emas, hayot shaxsisan,

Jonim kabi yashaysan manda.

(“Yana she’rimga”.)

Bu she’riy parchada yana bir narsa, ya’ni shoir ijodining yetakchi mazmuni – she’riyat va hayot oshig’ligi namoyon bo’ladi. U. Nosir o’z ijodini, o’z she’rini:

Sen yuragimning chashma suvisan,

Sen ko’zlarimning gavhar nurlari,

Sening bahongni kim so’rasa, de:

“Bahom umrning bahosiga teng”,- deb baholagan yildan boshlab, uning ijodining yangi davri, yangi oqimi, yangi toshqini boshlanganini qayd etsak ham mavzuni yanada ko’proq yoritgan bo’lamiz. Shuningdek, shoirning “Yurak”, “Bog’im” she’rlarining mavzu doirasi, g’oyasi haqida to’xtalib o’tish nam ishning mukammal bo’lishida yordam beradi. Axir, qalbida ilxom jo’sh urgan shoirgina:

Senga tor keldi bu ko’krak,

Sevinching toshdi qirg’oqdan.

Tilim charchar, ajab, gohi

Seni tarjima qilmoqdan, -

deyish mumkin. Shoir fikricha, Yurakka faqat bir o’rinda buyruq bermoq, uni itoatga ko’niktirmoq, balki majburlamoq ham qiynamoq mumkin, agar undan “Vatan rozi emas bo’lsa...”. Usmon Nosir she’riyati haqida gap borganda, “Nil va Rim” sarlavhasi ostidagi she’riy monologini alohida yoritib berish lozim. Avvalo, uning nomi bahs-munozaraga sabab bo’ladi. Nima uchun shoir she’rning nomini bunday nomlagan? Albatta, bunda o’qituvchi o’quvchilar bilan birgalikda matnni chuqur tahlil qilib, bahs uyushtirsa, savolga javob topadi. Asarda naqarotdek ikki bor qaytarilgan, “Mana menman, u isyonning o’lmas avlodi”,- deya boshlanuvchi hayqiriq, go’yo Usmon Nosirning o’zini kutayotgan og’ir erksizlik, surgun zulmatlarga oldindan ko’tarilgan isyondek yangraydi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, namuna sifatida quyidagi

taxminiy rejani tavsiya etamiz:

Mavzu: Usmon Nosir she'riyati

Reja:

I. Kirish. Usmon Nosir – favqulodda tug'ma iste'dod egasi.

II. Asosiy qism;

1. Shoir she'riyatining mavzu doirasi.

2. “Yurak” va “Bog'im” she'rlaridagi o'ziga xosliklar.

3. “Nil va Rim” – shoir she'riyatining cho'qqisi.

4. Usmon Nosir lirikasida yangi oqimning paydo bo'lishi.

III. Xulosa. Usmon Nosir ijodining o'zbek adabiyotida tutgan o'rni.

Ilxomning vaqti yo'q, selday keladi.

(Usmon Nosir.)

Albatta, tavsiya etilgan inshoning mazmuniga ma'lum o'zgartirishlar kiritish, ayrim she'rlar tahlilini boshqacharoq tahlil qilish mumkin.

Shunga o'xshash ayrim taxminiy rejalarni nasriy asarlar misolida tanishib chiqsak, masala yanada ravshanlashadi.

Mavzu:

Abdulla Qodiriy — tarixiy romanlar ustasi.

Reja:

1. Tarixiy roman haqida qisqacha ma'lumot.

2. A. Qodiriy ijodining boshlanishi.

3. «Moziyga qaytib ish ko'rish xayrli, deydilar».

4. A. Qodiriy romanlarida olijanob inson obrazi.

5. A. Qodiriyning so'z san'atkori sifatidagi mahorati.

Mavzu: Oybek — yirik yozuvchi

Reja:

1. Oybek nasrining mavzutikasi haqida ma'lumot,

2. «Navoiy» romani yozuvchi prozasining tarixiy namunasidir.

3. Oybek ijodida chet el hayoti mavzusi.

4. Oybek asarlari shaydosiman.

Mavzu: A. Qahhor — hikoyanavis

Reja:

- 1. A. Qahhor — o'zbek adabiyotining taniqli vakili.*
- 2. Yozuvchi hikoyalarining mavzutikasi haqida ma'lumot.*
- 3. O'tmish haqidagi hikoyalarda xalqning fojiali hayoti tasviri.*
- 4. Hayotiy voqealik yozuvchi hikoyalarining mavzularidandir.*
- 5. A. Qahhor hikoyalarida aks etgan o'zbek ayollari taqdiri.*
- 6. Hayotdagi ayrim illatlarni fosh etish yozuvchi ijodining asosiy xususiyatlaridandir.*
- 7. A. Qahhor hikoyalarining o'zbek adabiyotida tutgan o'rni.*

Mavzu: Boburnoma – memuar asar

Reja.

- 1. “Boburnoma”ning yaratilish tarixi haqida.*
- 2. Asardagi tarixiy joylar tasviri.*
- 3. Tarixiy shaxslarga xos bo'lgan sifatlarning “Boburnoma”da berilishi.*
- 4. Asarda moziyga aloqador faktlarning bayon etilishi.*
- 5. “Boburnoma”ning tili haqida.*

Mavzu: Nodira ijodiga tavsif

Reja:

- I. Kirish. Nodiraning adabiy merosi haqida qisqacha ma'lumot.*
- II. Asosiy qism:*
 - 1. Nodira ijodida chinakam insoniy tuyg'ularning ifodalanishi.*
 - 2. Shoir she'rlarida xalqparvarlik g'oyalarining aks ettirilishi.*
 - 3. Nodira – vafodor ayol va sevimli ona.*
- III. Xulosa. Nodira asarlarining tarbiyaviy ahamiyati.*

Nomlari tilga olingan mavzulardan birini tanlab insho matnini vujudga keltirish yo'llarini belgilaylik. Masalan, «A.Qahhor —hikoyanavis» mavzusini olaylik. Inshoning birinchi moddasida yozilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar hajm jihatdan katta. Ulardan qaysilarini yoritish o'quvchining ixtiyoriga havola. Xususan, bu o'rinda quyidagilar nazarda tutiladi:

A. Qahhor badiiy adabiyotning nasr va dramaturgiya turida ijod qildi. Uning «Sarob», «Qo'shchinor chiroqlari» romanlari, «O'tmishdan ertaklar» qissasi, «O'g'ri», «Bemor», «Asror bobo», «Dahshat» kabi hikoyalari, «Shohi so'zana», «Og'riq tishlar», «Tobutdan tovush», «Ayajonlarim» dramalari o'zbek adabiyotining taraqqiyotiga katta hissa bo'lib qo'shildi, yozuvchining asarlari ijtimoiy hayotning eng muhim va dolzarb masalalari haqida hikoya qilardi. Ammo yozuvchi qirq yil ijod qilganiga qaramay, u yaratgan asarlar son jihatdan ko'p va hajm jihatdan katta deb bo'lmaydi. Buning sababini yozuvchining so'z san'atiga bo'lgan munosabatidan axtarish lozim. A. Qahhor har bir ijodkorga, shu jumladan, o'ziga ham o'ta talabchanlik bilan yondashgan adib edi. Uning qalamiga mansub bo'lgan ko'pchilik asarlar g'oyaviylik va badiiylik talablariga to'la javob beradi. Bu haqida adabiyotshunoslar O. Sharafiddinov, U. Normatov, S. Mamajonovlarning maqolalarida, S. Ahmadning esdaliklarida qimmatli fiklar bayon etilgan.

O'qituvchi mashg'ulotlarda yozuvchining bevosita o'ziga xos uslubi, ijodining xarakteri haqida ma'lumot bersa, badiiy asarlarni o'qishga, mustaqil fikrlashga urinish ortadi. Xususan, A. Qahhorning hayotdagi ayrim kamchiliklarni aniq ko'rish va tezda unga munosabat bildirish xususiyati alohida e'tiborga sazovor edi. Savodsiz bo'lishlariga qaramay, o'zlarini jamiyatimizning guli deb hisoblagan ayrim ziyolilarning haqiqiy qiyofasini «San'atkor» kabi hikoyasida ochib tashlagan edi. «To'yda aza», «Qabrdan tovush», «Nurli cho'qqilar» hikoyalarida ham hayotdagi ba'zi illatlar fosh etiladi. A. Qahhorning haqiqiy muxlislari uning haqgo'yligi uchun ham sevganlar. Adibning asarlarida xalq tilidan mahorat bilan foydalanish ham o'quvchining e'tiborini tortmay qolmaydi. Jumladan, «O'g'ri»

hikoyasida «Qobil bobo hammaga qaraydi, ammo hech kimni ko'rmaydi», «Qobil boboning qo'shnisi burunsiz ellikboshi kirdi»; «Ikki yorti bir butun» hikoyasida «Siz aravaning gupchagini yerga ko'mgansiz, xudo ursin, bodring ko'karib chiqadi»; «San'atkor»da — «j»ning kattasini ko'rsatib bermadingiz, ertaga domla so'raydigan edilar. Qanaqa yoziladi? «Kichigini yozib, qattiqroq o'qing» kabi detallar A. Qahhor hikoyalarining o'qilishliligini ta'minlagan omillardan hisoblanadi.

Bu ma'lumotlardan «A. Qahhor — hikoyanavis» mavzusida yoziladigan inshoning so'nggi qismida, yozuvchining mahorati haqida fikr yuritilganda foydalanish ham mumkin.

Uning hikoyalarida turmushda uchrab turadigan ayrim kamchiliklarning tanqid qilinishi. Bu mavzu adibning «San'atkor», «To'yda aza», «Nurli cho'qqilar», «Ming bir jon», «Qabrdan tovush» kabi hikoyalarida o'z ifodasini topgan.

Qayd qilingan mavzulardan ma'lum bo'ladiki, A. Qahhor o'z hikoyalarida o'zbek xalqining inqilobdan oldingi davr hayotini tasvirlashga, keyingi davrdagi o'zgarishlarni yoritishga e'tibor bergan ekan.

O'tmishdagi fojialarni aniq tasavvur qilmay turib hozirgi kun qadriga yetib bo'lmaydi. Yozuvchi o'tmish hastni o'z o'quvchisi ko'z oldida gavdalantirish uchun ortiqcha umumiy tushunchalarni bayon qilmaydi, balki ayrim kichik badiiy detallar orqali o'z maqsadiga erishadi. Yozuvchi, o'rni kelganda, voqeani o'z nomidan, o'rni kelganda, qahramon nomidan hikoya qiladi. Eng muhimi, har ikki holatda ham yozuvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi samimiy munosabatga zarar yetmaydi. Voqealar oddiy hamisha ro'y berishi mumkinday sodda ifoda etiladi. Lekin mana shu oddiy voqeada qandaydir o'ziga xoslik ham sezilib turadi. E'tibor beraylik: **«Odamlar dod ovoziga o'rganib qolgan: birovni eri uradi, birovning uyi xatga tushadi... Ammo kampirning dodiga odam tez to'plandi»**. Yozuvchi oddiy hodisalarni sanab o'tyapti, biroq ho'kizning o'g'irlanishini ulardan ajratyapti. Chunki ho'kizning o'g'irlanishi bir xonadonning xonavayron bo'lishidan nishona edi. Endi yozuvchi xonadonning xonavayron bo'lishini bosqichma-bosqich kitobxon ko'z oldida gavdalantirishi kerak. Ho'kizning

yo'qolganligi haqida xabar bermoqchi bo'lgan burunsiz ellikboshining o'zi o'sha zahoti, hech nimadan hech nima yo'q Qobil boboning «hamyonini qoqishtirib» ketadi. Kechqurun amin topilmagan ho'kizning suyunchisini olishdan tortinmaydi. Qobil bobo azayimxonga abdagardon qildirgan yarim qop jiyda, uch yelpishtovoq jo'xori, ikki kalava ip olib boradi, ammo ho'kiz topilmaydi. Sakkizinchi kuni aminning oldiga Qobil bobo borganida, amin unga dashnom bera boshlaydi. Tilmochning o'ziga uchta tovuq bilan yuzta tuxum beriladi. Pristavga yana ikkita tovuq bilan uch so'm pul ketadi. O'sha paytda uch so'mga bitta qo'y berilishini nazarda tutsak, Qobil bobo poraga bergan pullari, qo'ni-qo'shnilaridan yig'ilgan narsalarning hisobi bilan yana bir ho'kizdan ajragan edi. Faqat uning ikkinchi ho'kizini olgan amaldor-u tilmochlarning ustidan na odamlarga, na idoralarga shikoyat qilib bo'lardi. Chunki ularning birontasi ham rasmiy jihatdan Qobil bobodan narsa olgan emas, shuning uchun ham hikoyaga «Otning o'limi— itning bayrami» maqoli epigraf qilib olingan. Maqolning asl ma'nosiga ko'ra, ot so'yilgan xonadonda it go'shtga to'yadi. U bayram qiladi. Maqolning ko'chma ma'nosida esa otning o'limi bilan Qobil bobo ho'kizining o'g'irlanishi, itning bayrami bilan amaldorlarning pora olishlari uchun sababning paydo bo'lgani qiyoslanyapti.

Agar o'tmish haqidagi hikoyalarni ana shu tarzda aniq dalillarga suyangan holda tahlil qilsak, «Anor», «Bemor» hikoyalarida ham xalqimiz boshidan kechirgan qora kunlarga guvoh bo'lamiz.

Abdulla Qahhor hikoyalari haqida insho yozganda, ularda o'zbek xalqining taqdiri ifodasi haqida fikr yuritish juda muhim hisoblanadi. Avvalo, qaysi obrazlarni nazarda tutishimiz mumkin? Gap shundaki, Abdulla Qahhorning ko'p hikoyalarida ishtirok etuvchi obrazlarning nomi keltirilmaydi. Bu bilan A. Qahhor hikoyalaridagi ishtirok etuvchi shaxs oddiy inson ekanligini ta'kidlab o'tadi. Ayni paytda bir qator obrazlarning nomlarini qayd etish ham mumkin bo'ladi. U yaratgan Mastura, Fotima, Zuhra obrazlari shular jumlasidandir. Yozuvchining fikricha, o'zbek ayoli idrokli, iffatli, aqlli ayollardan hisoblanadi. Masalan, «Dahshat»dagi Unsin shu davr jamiyati qonun-qoidalariga ko'r-ko'rona

bo'ysunmaydi. U o'z eridan ajralish uchun rozilik olish maqsadida uncha-muncha erkak kishining qo'lidan kelmaydigan jur'at ko'rsatadi. Tun qorong'isida qabristonga borib, go'rlar orasida choy qaynatadi, ammo eri makrining qurboniga aylanad. Bu iroda «Ming bir jon»dagi Mastura obrazida yanada kuchli namoyon bo'ladi. Mastura o'lim to'shagida ham hayotga umid bilan qaraydi. Hatto hovlisiga anglashilmovchilik oqibatida kiritilgan tobut ham uning irodasini bukolmaydi. Abdulla Qahhorning «Nurli cho'qqilar» hikoyasidagi Fotima va Zuhra obrazlari 50-yillarda yaratilgan bo'lsa ham, ularni hozirgi kundagi qizlarimizning tipik vakillari deyish mumkin. Onasining erkalashlari, avaylashlari, ortiqcha maqtashlari natijasida Zuhra kelajagidan ajraldi. Mehnatdan qochmagan Fotima esa hayotda o'z o'rnini topdi.

Abdulla Qahhor ijodiga hayotda uchrab turadigan illatlarni fosh etish xususiyati xos edi. U o'zining hikoyalarida savodsiz ziyolilarni («San'atkor», «Adabiyot muallimi»), laganbardorlarni («Ikki yorti — bir butun»), ashaddiy kashandalarni («Bashorat») qattiq tanqid ostiga oldi.

A. Qahhor *o'z suhbatlaridan birida tinchini yozuvchi asarining paydo bo'lishini tovuqning tuxum qo'yishiga o'xshatib, biron fikr, asar ijodkorning xayolida yetilgandan so'ng, tuxum qo'yadigan tovuqqa o'xshab yo'qotib qo'yishini aytgan edi*⁷. Bu fikrdan shunday xulosaga kelish mumkin: A. Qahhorning ayniqsa so'nggi davr ijodiga oid bironta asari shunchaki, ko'ngil xushi uchun yaratilgan emas. Har bir hikoyasidan tortib drama, qissalarigacha albatta biron muhim gap aytiladi, hayotdagi kamchiliklar tanqid qilinadi.

Yozuvchining hikoyalari tom ma'noda o'zbek adabiyotining ajoyib namunalari hisoblanadi. A. Qahhor ijodining boshlanish nuqtasi o'zbek adabiyotining shakllanish davriga to'g'ri keladi.

A. Qahhor o'zbek hikoyachiligi sarchashmasini barpo qilgan yozuvchilardan hisoblanadi. U yaratgan hikoyalar mundarijasi keyingi davr hikoyachiligimiz uchun yo'nalish berdi. Hayotdagi eng muhim masalalarni qalamga olish, esda qoladigan jonli obrazlar yaratish, asar sujet chizig'ini keskin konflikt asosida qurish, oz-u soz yozish mahorati yosh yozuvchilar uchun ijod va mahorat

maktabiga aylandi.

Ma'lum bo'ladiki, adib ijodidagi ma'lum janrga oid asarlarning tahliliga bag'ishlangan insholarni yozishda o'quvchidan ana shu janrda yaratilgan asarlar bilan tanishib chiqish talab etiladi. Ularning adabiyot taraqqiyotida tutgan o'rni, mavzutikasi, adibning badiiy mahorati haqida fikr yuritish so'raladi.

Ma'lum bir asarning g'oyaviy-badiiy tahliliga oid insholar mazkur asar haqida o'quvchining mukammal bilimga ega ekanligini aniqlash maqsadida yoziladi. G'. G'ulomning «Sen yetim emassan» she'ri, Uyg'unning «Nazir otaning g'azabi», Zulfiyaning «O'g'lim, sira bo'lmaydi urush» she'rlari tahliliga bag'ishlangan insholar shular jumlasidandir. O'quvchi badiiy asarni tahlil qilishda quyidagi masalalarga e'tibor berishi zarur:

1. Badiiy asarning janri.
2. Uning yozuvchi ijodida tutgan o'rni.
3. Adabiyot taraqqiyotida tutgan o'rni.
4. Mavzusi.
5. G'oyaviy yo'nalishi.
6. Badiiy xususiyatlari.
7. Asarni o'qishdan olingan taassurotlar. (yuqorida qayd qilingan moddalar tartibi o'quvchining ixtiyoriga binoan o'rin almashishi mumkin).

Masalan, G'. G'ulomning «Sen yetim emassan» she'ri tahliliga bag'ishlangan inshoga taxminan quyidagi rejani tavsiya etish mumkin:

1. G'. G'ulomning poeziyasi haqida umumiy ma'lumot.
2. «Sen yetim emassan» — G'. G'ulomning 2- jahon urushi davrida yaratgan she'rlaridan biri.
3. «Sen yetim emassan» she'rida fashist bosqinchilariga nisbatan nafrat tuyg'ularining ifodalanishi.
4. Xalqlar do'stligi madhi she'rining asosiy mavzularidandir.
5. She'rda o'zbek xalqining g'alabasiga bo'lgan ishonch tasviri.
6. «Sen yetim emassan» she'rining badiiy xususiyatlari.
7. «Sen yetim emassan» she'ridan olgan taassurotlarim.

O'quvchi inshoni G'afur G'ulomning ijodiga oid muhim ma'lumotlarni yozishdan boshlaydi. G'. G'ulom poeziyasining o'zbek adabiyotida tutgan o'rnini belgilashga urinadi. Shundan so'ng urush yillarida shoir tomonidan yaratilgan asarlar haqida qisman fikr yuritadi va «Sen yetim emassan» she'ring tahliliga kirishadi.

She'ring mavzutikasi haqida fikr yuritishdan avval, uning yaratilish tarixini yoritish lozim. Shundan so'ng asarning g'oyaviy mazmuni haqidagi fikrlarning bayoniga o'tiladi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar inshoda ko'pincha dastlabki misralar haqida va she'ring so'nggi qismi haqida mulohaza yuritish bilan chegaralanadi. O'qituvchi bu holga yo'l qo'ymaslik uchun she'rni bir butun tarzda tahlil etish lozimligini uqtiradi. Buning uchun asar mazmunini mukammal o'zlashtirish zarur. O'quvchilarda she'ring har bir qismi haqida tasavvur uyg'otish maqsadida reja tuzish yaxshi natija beradi:

1. Go'daklarning yetim emasligini qayd etish.
2. 10- yillarning sargardonligi.
3. «yovvoyi maxluq»larning vahshiyliigi
4. «Nahotki daryolar oqar teskari».
5. «Jahonda bo'lurmiz ozod, muzaffar».

«Sen yetim emassan» she'ring mazmunini o'zlashtirish uchun tuzilgan bu rejadan sinf o'qituvchisi o'zining asar tahliliga bag'ishlangan ma'ruzasida ham foydalanishi mumkin. Shunday qilinganda, she'ring g'oyaviy mazmunini ifodalashda muhim o'ringa ega bo'lgan, ammo o'quvchilarning insholarida e'tibordan chetda qoladigan Odessa dahshati, Kerch fojiasi, xo'rlangan ona, o'lgan ota, qo'ng'iz mo'ylovli Gitler, yer kurrasining chappa aylanishi mumkin emasligi haqidagi tasvirlar ham inshoda o'z ifodasini topadi.

Mazkur mavzuda yoziladigan inshoda she'ring zinapoya tarzida yaratilganligi, qofiyalanish sismavzusi o'ziga xosligi badiiy vositalarga boy ekanligi haqida ham fikr yuritiladi. She'r o'quvchida yaxshi taassurot qoldirishi uchun o'qituvchi dars mashg'ulotlari davomida 2- jahon urushi yillari haqida ta'sirchan suhbatlar uyushtirishi kerak. Biz bu o'rinda quyidagi mazmundagi

xotiralarni nazarda tutamiz:

Hamid Olimjon shoir G'afur G'ulomni eslab, shunday voqeani hikoya qilgan edi: 1942-yilda O'zbekiston shoirlari frontga yordam ko'rsatish maqsadida kitobxonlar bilan uchrashuv o'tkazmoqchi bo'ldilar. Uchrashuvdan to'plangan mablag' frontga yuborilishi lozim edi. Mazkur anjuman Toshkentdagi Oktabr bozoridagi klubda o'tkaziladigan bo'ldi. Shoirlar yig'ilganligiga qaramay, atigi 3-4 ta bilet sotilgan edi, xolos. Bozordagi hamma xaridor va sotuvchilar o'z tashvishlari bilan band edilar. Shunda bozor reproduktoridan G'afur G'ulomning «Sen yetim emassan» she'ri o'qiladi. Guvohlarning eslashicha, shu zahoti bozor sirli sukutga cho'kadi. She'rdan ta'sirlanmagan biror kishi qolmaydi. She'rni o'qib bo'lgan suhandon shoirlar bilan, xususan, G'. G'ulom bilan ham uchrashuv o'tkazilayotgani haqidagi xabarni e'lon qiladi. Bozordagi odamlar sehrlangandek baravariga klub tomon oqib kela boshlaydilar. Oz fursatda biletlar sotib yuboriladi. Xalqning talabiga binoan, uchrashuv davomida klubning eshigi ochib qo'yiladi.

Badiiy asarning tarixiga oid bunday xotiralar emotsional ta'sirchanlikni oshiradi, o'quvchilarning estetik didini shakllantiradi.

Demak, alohida badiiy asarning tahliliga bag'ishlangan insholarda har tomonlama asosli, mukammal va chuqur mulohaza yuritish talab etiladi. Asardan konkret parchalar keltirish, ularni atroflicha izohlash ham yaxshi natija beradi.

Adabiy mavzularda yoziladigan insholar orasida badiiy asarda aks etgani ma'lum bir mavzu, biror masalaning tahliliga oid insholarni yozish ancha murakkabdir. Chunonchi, «A. Qodiriyning «Mehrobdan chayon» romanida xonlik davri illatlarining fosh etilishi», «Maqsud Shayxzodaning «Mirzo Ulug'bek» tragediyasida ilm va ma'rifatning aks ettirilishi» kabi mavzularda insho yozish maxsus tayyorgarlik ko'rishni taqozo etadi. O'qituvchilar bunday insholarda nimalar haqida yozish kerakligini hamisha ham aniq ko'rsatib bermaydilar. Bizningcha, inshoga tayyorgarlik ko'rish davomida bunday mavzularni yoritish metodikasi aniq ko'rsatib berilishi kerak. Badiiy asarda aks ettirilgan ma'lum bir masala ko'pincha tarixiy sharoit bilan bog'liq bo'ladi. O'quvchi ana shu tarixiy

sharoitni yaxshi bilsa, o'z fikrlarini bayon qilishda u qadar qiynalmaydi. Faraz qilaylik, o'quvchilarga Abdulla Qodiriyning «Mehrobdan chayon» romanida xonlik tuzumi illatlarining fosh etilishi haqida insho yozish tavsiya etildi.

Inshoga tayyorgarlik davomida o'quvchilar romanni to'la va mukammal o'qib chiqqan bo'lishlari shart, chunki bunday mavzudagi insholarni yozish asar matnini juda yaxshi o'zlashtirishni taqozo etadi. Dastlab romanning o'zbek adabiyoti taraqqiyotida tutgan o'rni, Abdulla Qodiriy tomonidan 20-yillarning boshlarida Qo'qon xonligi tarixi sinchkovlik bilan o'rganilganligi, juda ko'p hujjatlar ko'zdan kechirilganligi yuzasidan ma'lumot beramiz. Bizning bu yo'nalishdagi tushuntirishlarimizdan o'quvchi «Mehrobdan chayon» romaniga bog'liq hamma insholarni yozishda ham foydalanaveradi. Asarda xonlik tuzumi illatlarining fosh etilishini yoritish uchun o'qituvchi qo'shimcha ma'lumotlar berishi kerak. Nazarimizda inshoning asosiy qismida o'sha jamiyatidagi mansabparastlik va xudbinlikni fosh etishga e'tibor berish ma'qul. Xususan, Abdurahmon kabi razil va munofiq shaxslarning vujudga kelishidagi ijtimoiy sharoitni tahlil qilish kerak. Shuningdek, Anvarning mirzalik lavozimiga ko'tarilish arafasidagi Solih maxdum xonadonidagi suhbatlarga e'tibor berish lozim.

Ikkinchidan, Xudoyorxon saroyidagi kanizlar hayotining tasvirlanishi, Ra'noning xon saroyiga olib ketilishi munosabati bilan tuzilgan rejalar tahlil etiladi. Ayniqsa, Abdurahmonning Anvardan o'ch olishi Ra'no haqida Gulshanga xabar berish bilan boshlanganligi tahlil etiladi. Xon saroyidagi razilliklar, tartibsizliklar munofiq shaxs maqsadining amalga oshishi uchun imkon beradi.

Uchinchidan, xonlik tuzumi illatlari hukmdorlarning mushtumzo'rliqi bilan bog'liq edi. Xudoyorxonning xohishi bilan jo'natilgan sovchilar Anvar bilan Ra'noning unashtirilganligiga mutlaqo e'tibor bermaydilar. Bu bilan ular shariatni ham toptaydilar. Ayni vaqtda Ra'noning ixtiyori bilan qiziqmaydilar. yoshlar xon chang'alidan qutulish choralarini ko'rganlarida ularning harakatlari saroydagi zo'ravonlik bilan cheklanadi.

To'rtinchidan, adib roman davomida xalq vakillari, ilg'or fikrli ziyolilar orqali ommaning xonlik tuzumi illatlariga bo'lgan munosabatini ham tadrijiy ravishda

ko'rsatib boradi. Inshoda bu fikrni Safar bo'zchi, Anvar, Sultonali kabi qahramonlarning xatti-harakati orqali asoslash mumkin. Ayniqsa, Ra'no bilan Anvarning xon saroyi muhiti haqidagi suhbatlariga alohida e'tibor beriladi.

Inshoning yakunida o'quvchi o'z mulohazalarini bayon qilar ekan, romanda xonliktuzumi illatlarining fosh etilishi unda qanday taassurot qoldirganligiga alohida e'tibor beradi. Yozuvchi aks ettirgan hayotiy epizodlarning estetik qimmatini baholaydi.

Yuqorida qayd etilgan fikrlarni hisoblab, «Mehrobdan chayon» romanida xonlik tuzumi illatlarining fosh etilishi» mavzusida yoziladigan inshoning taxminiy rejasini tavsiya etamiz.

Mavzu: «Mehrobdan chayon» romanida xonlik tuzumi illatlarining fosh etilishi.

Reja:

I. Kirish:

- 1.«Mehrobdan chayon» o'zbek adabiyotining ajoyib namunasi.***
- 2.Tarixiy hayotning haqqoniy aks ettirilishi.***

II.Asosiy qism:

- 1.Jamiyatidagi mansabparastlik va xudbinlikni fosh etish yozuvchining maqsadlaridan biridir.***
- 2.Xon saroyidagi zo'ravonlikning haqqoniy tasviri.***
- 3. Ommaning xonlik tuzumi illatlariga munosabati tasviri.***

III.Xulosa.

«Mehrobdan chayon» romani mening sevimli asarimdir.

Shunday qilib, asardagi ma'lum bir masalaning aks etishini tahlil qilishga oid inshoda nimalarni yozish kerakligini belgilash muhim hisoblanadi. Bu vazifa qanchalik aniq bajarilsa, insho shu qadar mukammal va mazmunli chiqadi.

Badiiy asardagi obrazlar tavsifiga oid insholar kurs davomida yoziladigan insholar mavzutikasining salmoqli qismini tashkil etadi. To'g'ri va mukammal

tavsif o'quvchi tomonidan asarning g'oyaviy-badiiy qimmatini yaxshi anglab yetilganidan dalolat beradi. O'quvchi badiiy obrazga hayotdagi individual shaxs sifatida munosabatda bo'lishi kerak. Ijobiy qahramonlarning taqdiriga befarq qaramasligi, salbiy obrazning nuqsonlarini aniq qoralay olishi lozim. Afsuski, o'quvchilarning og'zaki javoblarida ham, yozma ishlarida ham shu o'rinda kamchilik ko'zga tashlanadi: ko'pincha ular o'qituvchining dars davomida aytgan gaplarini, darslikdagi fikrlarni qayta takrorlash bilan chegaralanadilar. Obrazlarga tavsif turidagi insholar badiiy asar mazmunining bayonidan iborat bo'lib qolyapti. Vaholanki, bunday inshoda qahramonning xatti-harakati, fazilat va nuqsonlari yoritilishi kerak. Ba'zan e'tibor tavsif o'rniga biron voqea hodisani tahlil qilishga qaratiladi. Masalan, Ulug'bek obrazi haqidagi inshoda Ulug'bekning taxtdan voz kechishi kabi masalalar rejada alohida modda sifatida qayd etiladi.

Adabiy-ijodiy insho

Insholar mavzutikasida shunday mavzular ham borki, ularda ham adabiy, ham ijodiy insholardagi xususiyatlar mujassam bo'ladi. Ayrim hollarda o'qituvchilar o'quvchilarning badiiy asarlardagi qahramonlar, ularning mualliflari haqidagi fikrlarini bilishga qiziqadilar. «Anvar - men sevgan qahramon», «Kumush - men sevgan qahramon», «Zulfiya — men sevgan shoira» kabi mavzular shu maqsadda beriladi. Ba'zan esa «Men sevgan shoir», «Men sevgan qahramon» mavzularini o'quvchilarga tavsiya qilganimizda, ular dasturda o'rganilgan adib yo qahramon haqida yozishni xohlaydilar. Bunday paytlarda ham insho mavzui adabiy va ijodiy mavzular oralig'ida yoritiladi. Biz bunday paytlarda ularni shartli ravishda adabiy - ijodiy insho deb atashni ma'qul deb topdik. Chunki ularda, bir tomondan, adabiyot dastursida o'rganilgan materiallarga suyanilsa, ikkinchidan, bu ma'lumotlar bevosita. o'quvchining his-hayajoni, taassurotlari zaminida tahlil etiladi.

Adabiy-ijodiy insho ichida alohida qahramonlarning fazilatlari tahlil qilingan insholar ko'p uchraydi. Kumush, Otabek, Yo'lchi, Gulnor, Anvar, Ra'no va boshqa obrazlar haqiqatan ham o'quvchilarda ijobiy taassurot qoldiradi. O'quvchi

o'z inshosida hayotda odamlardagi qanday xususiyatlar unga ma'qul ekanini va fikr yuritilayotgan qahramonlarda qanday namoyon bo'lishini yozishi kerak. Obrazlarga tavsif berish turidagi insholar bunday yozma ishlardan shu jihati bilan ham farq qiladi. Undan tashqari, bunday insholarda o'quvchilarning shaxsiy fikr-mulohazalari ham asosiy o'rin egallaydi. «Anvar — men sevgan qahramon» mavzusidagi inshoni olaylik. O'quvchi yozma ishda qanday masalalarni yoritishi, inshoni qanday yozishi kerak? Agar talabamiz inshoni shunday boshlasa, yaxshi bo'lar edi: «Men yosh bo'lsam ham, hayotda juda ko'p har xil odamlarni uchratganman. O'nlab kinofilmlarni ko'rganman, badiiy asarlar o'qiganman. Hozirgi paytda inson qanday bo'lishi kerak, qanday xususiyatlarga ega bo'lishi lozim? degan savollarga javob bera olaman. Abdulla Qodiriyning «Mehrobdan chayon» asarini juda katta qiziqish bilan o'qib chiqdim. Yozuvchi o'z kitobxonini tasvirlayotgan voqealari chizig'idan yetaklab bora oladi. Shuning uchun ham «Mehrobdan chayon» kitobxonlarning eng sevimli asarlaridan biri bo'lib qolmoqda. Haqiqiy san'at asari vaqt o'tgan sari o'z qadrini oshirib boradi, deyishadi. O'ylaymanki, «Mehrobdan chayon» romani misolida bu fikrni bimalol isbotlash mumkin.

Asardagi Anvar haqiqiy inson sifatida menga juda yoqdi. To'g'ri, u o'tgan asrda yashagan odam. Ammo, fikrimcha, inson qaysi davrda yashamasin, u, avvalo, inson bo'lishi kerak. Axir Alisher Navoiy bejiz:

«Inson borki, insonlarning naqshidur, Inson borki, hayvon
undan yaxshidur»,

demagan-ku!

Anvar o'tgan asrda yashaganiga qaramay, uning juda ko'p xususiyatlari
mening zamondoshlarimga ibrat bo'la oladi».

Inshoda o'quvchining ishi faqat Anvar obraziga tavsif berishdan iborat bo'lmasligi kerak. U qahramondagi o'ziga yoqqan xususiyatlarni tahlil qilishi va ularning yoqish sabablarini yoritishi lozim. Xo'sh, Anvardagi qanday xususiyatlar o'quvchilarga xush kelishi mumkin?

«Menda Anvarning o'z so'zida turadigan sobit do'st ekanligi, jasoratligi katta

taassurot qoldirdi. Shuningdek, men sevgan qahramon juda kambag'al oiladan chiqqan. Hatto oilasidagilar boqishga kuchi yetmaganidan uni Solih maxdumga berishadi. Anvar yoshligidanoq domlanning xonadonida ichgan tuzini oqlashga harakat qiladi. U maktabdagi talabalarga ta'lim berib, Solih maxdumning og'irini yengil qiladi. Undan tashqari, Ra'noni o'ynatadi, uy yumushlarini o'z zimmasiga oladi. Shuncha ishlar bilan band bo'lshiga qaramay, o'z bilimini ham oshirib boradi. Mustaqil mutolaaga kirishadi. Bir maktabdorning yo'l-yo'lakay bergan ta'limining o'zi Anvarga yetarli emasdi. Shu boisdan qo'shimcha kitoblarni olishga va o'qishga urinadi. Har bir tanishgan asariga mustaqil fikr bildiradi. Bo'lmasa, Buxoroi sharifda yillar davomida tahsil ko'rgan Aburahmondan chuqurroq bilimga ega bo'larmidi? Anvar mehnatsevarlikni xon saroyiga ishga o'tganda ham qoldirmaydi. Mehnatga muhabbat bilan qarash unda kamtarlik, insonlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish xususiyatini shakllantiradi. Anvar shuning uchun ham sarmoyasi yetishiga qaramay, otda yurishga odatlanmaydi. Safar bo'zchining mushkulini oson qilib, undan hech narsa olmaydi».

O'quvchning bunday fikr bildirishi o'qituvchining mashg'ulotni tarbiyaviy jihatdan to'g'ri uyushtirganligini ko'rsatadi. Dars mashg'ulotlarida badiiy asardagi obrazlarni, avvalo, ularni ijobiy yoki salbiy obrazga ajratishni o'rgatishimiz, o'quvchida qahramonga nisbatan hurmat uyg'ota bilishimiz lozim. Albatta, fikr yuritilayotgan shaxsni «ijobiy qahramon» deb qo'ya qolish kifoya emas. Bu fazilat, asar mazmunidan kelib chiqqan holda, o'rni bilan qayd etib borilishi kerak. Shundagina o'quvchi didli kitobxon sifatida o'z fikrlarini sharhlashga, misollar orqali isbotlashga o'rganadi.

«Anvar —men sevga qahramon» mavzusida yoziladigan inshoning davomi obrazning sadoqatli inson ekanligiga bag'ishlanishi mumkin:

«Mehrobdan chayon» romanida Anvarning uchta odamga katta sadoqat bildirganining guvohi bo'ldim. Anvar yoshligida Nasim ismli do'stidan ajralib qoladi. Uni bironta odam majburlab Nasimnikiga, uning go'ri tepasiga jo'natmaydi. Anvarning o'z do'stiga bo'lgan sadoqati uni Nasimning uyiga va mozoristonga yetaklaydi. U kechalari bilan o'rtog'inikida qolib ketadi. Soatlab

uning go'rini quchoqlab yotadi. Hatto do'stiga bag'ishlab qalb iztirobini ifodalovchi g'azal bitadi. O'sha g'azalda quyidagi misralar bor:

Nasimim ketdi olamdan meni qayg'u aro tashlab,

Ko'zimdan oqsa xun, hech bir ajab yo'q, chunki qon yig'lar.

O'ylaymanki, bunday ish faqat haqiqiy do'stninggina qo'lidan keladi. Eng muhimi, Anvar o'z sadoqatini oliy darajadagi insoniy xislatlar vositasida o'ta samimiy holda izhor qilar edi. Uning samimiyligiga men qoyil qoldim. Ko'pincha Anvardek do'stimning yo'qligidan afsuslanaman. Qani endi mening hayot yo'limda ham ana shunday odam uchrasa! Men uning bir sadoqatiga o'n sadoqat bilan javob qaytarar edim.

Anvar o'z sadoqatini Ra'noga nisbatan ham bildiradi. Ra'noni Xudoyorxonga fотиha qilishganda, Anvar xon saroyida mirzaboshilik vazifasini bajarayotgan edi. U iqtisodiy jihatdan ta'minlangandi. Obro'yi ham yomon emasdi. Shunday ekan, unda Ra'nodan voz kechib, boshqa bironta go'zal qizga uylanish imkoni bor edi. Ammo Anvar haqiqiy inson, oshiq bo'lgani uchun o'z Ra'nosini xon changaliga tashlab qo'ymaydi. Bevosita xon saroyida xizmat qilayotgan Anvar o'z xatti-harakati uchun xon tomonidan qanday jazoga duchor etilishini juda yaxshi biladi. Biroq har qanday jazo uni ahdidan qaytarolmasdi. U o'z sevgilisiga sadoqat bildirib, har qanday oliy unvonlardan voz kechadi, o'limga ham tayyor turadi. Menyng hayotimda hali bunday vaziyat bo'lgani yo'q. Aynan shunday holatda Anvardek mard va haqiqiy oshiq bo'lishni istar edim.

Anvar romanda sadoqat bildirgan uchinchi odam Sultonali edi. Xudoyorxon Anvar uchun Sultonolini qatl qilishi haqida jar soladi. Xonning makkorligini yaxshi tushungan Anvar o'z do'stini fojiali holatda qoldirib ketmaydi. U endi hayot-mamot kurashiga bel bog'laydi. Menga Anvardagi muhim „narsalarning darajasini belgilash qobiliyati juda ma'qul bo'ldi. Anvar zarur paytda Ra'noni olib qochdi, uni yashira oldi. Ammo Sultonalining hayoti qil ustida turgan paytda endi Ra'noni ishonchli qo'llarga topshirib, xon huzuriga do'stini qutqarish uchun bordi. Hatto xonning oldida do'stining keyingi hayotini ta'minlash uchun unga zaharli so'zlarni aytadi. O'ylaymanki, har kim ham Anvarchalik o'limga tik qaray olmasa

kerak. U Xudoyorxonga hech kim jur'at qilolmagan gaplarni aytishdan qo'rqmaydi. Bunday insonni sevmay, hurmat qilmay bo'ladimi?!»

Inshoning ana shu yo'sinda yozilishi o'quvchining roman matnini shunchaki o'zlashtirganidan emas, asar qahramonlari bilan mukammal tanishganidan dalolat beradi. Unda ma'lum darajada mantiqiy fikrlash qobiliyatining shakllanayotganini ko'rsatadi. Keyingi qismlarda Anvarning Solih maxdum, Abdurahmon kabilar bilan munosabati, uning samimiy, bilimdon, andishali yigit ekanligi haqida fikr yuritish mumkin. Xususan, qahramonning shoirtabiatligi haqida inshoda quyidagicha fikr bildirish ma'qul.

«Abdulla Qodiriy Anvardagi go'zallikni qadrlash fazilatini ham ifodalaydi. U gulzordagi gullarning chiroyidan bahra oladi, to'lqinlanadi. Hayotdagi go'zallikni ilg'ab olishga harakat qiladi. Anvardagi shoirlik iste'dodi ham menda katta taassurot qoldirdi».

Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda quyidagi reja namunasini keltirib o'tamiz.

Mavzu: Anvar – men sevgan qahramon.

Reja:

I. Kirish. Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romani to'g'risida.

II. Asosiy qism:

1. Anvar timsoli orqali ilm olishga ishtiyoqmand, qobiliyatli yoshlar xarakterining berilishi.

2. Anvar – o'z so'zida sobit turadigan sadoqatli do'st.

3. Anvar timsoli yordamida ijtimoiy tuzumdan norozilik kayfiyatlarining berilishi.

4. Anvar timsolining tarbiyaviy ahamiyati.

III. Xulosa. Anvar – mening sevimli qahramonim.

Adabiy-ijodiy mavzulardagi insholarda dasturda o'rganilgan adib ijodi haqida o'quvchi olgan taassurotni ham bayon qilishi mumkin. Ma'lumki, adabiyot dasturida o'zbek adabiyotining taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan, badiiy ijodda o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan, adibning hayoti va ijodi o'rganiladi.

O'quvchiga dasturda o'rganilgan san'atkor ijodining ko'p jihatlari ma'qul bo'lishi tabiiydir. O'qituvchi dars mashg'ulotlarida yozuvchi yoki shoirning qanday sifatlari, uning ijodidagi qanday xususiyatlar ma'qul bo'lishi mumkinligi haqida yo'llanma bersa, yanada yaxshi.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, yozuvchining shaxsiy hayotida bo'lib o'tgan ibratli voqea-hodisalar haqida hikoya qiluvchi zamondoshlar xotirasi o'quvchilarda ijodkorning ijodiga ham qiziqish uyg'otmoqda. Hamza Hakimzoda, A. Qodiriy, A. Qahhor, M. SHayxzoda kabi atoqli adiblarimiz haqidagi xotiralar kitob shaklida nashr qilindi. H. Olimjon haqida esa «Sen elimning yuragida yashaysan» nomli kitobcha e'lon qilindi. O'qituvchi, kezi kelganda, ana shu kitoblarni o'qishga tavsiya qilsa, ularning ayrimlaridan olingan parchalarni o'quvchilarga o'qib bersa, yomon bo'lmaydi. Masalan, H. Olimjon haqidagi xotiralardan birida shoir Chustiy shoirning fojiasi — avariya dan keyingi holati haqida yozgan. Unda o'lim bilan olishib turgan shoir, yordam berish taraddudida yaqinlashayotgan Chustiyga Uyg'undan xabar olish lozimligini iltimos qiladi. Bu daqiqalarda tortilayotgan azob faqat shoirning o'zigagina ma'lum edi. U hayotdan ko'z yumishi aniq ekanligini his etardi. Ammo shunday paytda ham shoir o'z hamrohini, qalamkash do'stini yodidan chiqarmadi. Bu H. Olimjonning iste'dodli shoirgina emas, haqiqiy inson ekanligini ham ko'rsatuvchi ibratli voqea edi. Agar o'qituvchi o'z suhbatlarida sevimli adib haqida yoziladigan inshoda uning insoniy fazilatlarini ham yozish mumkinligini ta'kidlasa, o'quvchi «H. Olimjon — men sevgan shoir» mavzusidagi yozma ishida Chustiyning xotirasini albatta esga oladi va bu bilan inshoning saviyasi ma'lum darajada ko'tariladi. Xullas, adabiy-ijodiy insholarni yozishda o'quvchi ko'proq o'zining shaxsiy fikrlariga suyanadi. Badiiy tahlilning elementar qonun-qoidalaridan foydalangan holda so'z san'atining muxlisi sifatidagi mulohazalarini bayon etadi. Ayni choqda o'qituvchining dars mashg'ulotlari davomida aytgan fikrlaridan ham foydalanadi. Darslikdagi materiallarga asoslanadi. Adabiy-ijodiy insholarni yozish o'quvchida ijodiy (erkin) mavzudagi insholarni yozish uchun zamin, tajriba hosil qiladi. Adabiy, adabiy-ijodiy insholarning yozilish metodikasini yaxshi egallagan o'quvchilar erkin

mavzudagi yozma ishlarda qiynalmaydilar.

Ijodiy (erkin) insho

Akademik litsey va kasb hunar kollejlarida adabiyot fani mashg'ulotlarini olib boruvchi o'qituvchining vazifalaridan biri o'z o'quvchilarni mustadil fikrlashga, mulohazalarini savodli yozishga o'rgatishdir. Ijodiy insho o'quvchilarda dasturda nazarda tutilgan mavzular haqida fikr yuritish malakasini hosil qilishga ko'maklashishdan tashqari, hayotdagi voqea-hodisalarga sinchkovlik bilan nazar tashlash, ularni tahlil qilish, umumiy duyoqarashni rivojlantirishga intilish ko'nikmalarini ham hosil qiladi.

Ijodiy insholar mavzutik jihatdan adabiy va adabiy-ijodiy insholardan farq qiladi. Ammo bu holat insholarning adabiyot fani bilan bog'liqligiga putur yetkazmasligi lozim. To'g'ri, ayrim mavzular xarakter jihatdan adabiyot fanidan ancha yiroqdek tuyuladi. Vatanimiz tarixi, O'zbek xalqi bosib o'tgan hayot bosqichlari, xalqimiz ko'rsatgan buyuk qahramonliklari kabi o'nlab mavzularni yozishda adabiyot fanidan olingan ma'lumotlar ikkinchi darajali o'ringa o'tib qolgandek bo'ladi. O'qituvchi erkin mavzuda insho yozayotgan talabasiga adabiyot fanini mutlaqo chetlab o'tgan holda insho yozish noto'g'ri ekanligini tushuntirishi zarur. Ba'zi insholarni tarix fanidan o'rganilgan ayrim mavzularning konspektlaridan, ijtimoiy hayot haqida betartib fikr yuritilgan mulohazalardan, matbuotda e'lon qilingan hisobotdan ajratib bo'lmaydi. Bunday insholarda tarixiy voqealarning sodir bo'lishi tafsilotlari mufassal yoziladi

Ijodiy insholarning uslubi ham o'ziga xos bo'ladi, xususan, ularda publitsistik yo'nalish yetakchilik qiladi, emotsional murojaat ko'proq bo'ladi. Masalan, mamavzutik bo'lishni orzu qilgan o'quvchi o'z fikrini quyidagicha bayon etadi:

«Men mamavzutika fanini sevaman. Bu fanni sevmay bo'ladimi? Tasavvur qiling, kosmosda yuzlab sun'iy yo'ldoshlar, kosmik kemalar go'zal yerimizni kuzatib-uchmoqda. Xalqimizning mushkulini oson qilayotgan mashinalar, hatto, sinflardagi yuz minglab partalar ham mamavzutik hisoblar asosida bunyod etiladi. O'rta Osiyoda yashovchi xalqlarning buyuk farzandlari Umar Xayyom, Beruniy, Ulug'bek kabi olimlar butun dunyoga mamavzutik sifatida tanildilar. Orzuga ayb

yo'q, deyдилar. Men ham ana shu sohani egallab, xalqimning mushkulini oson qilsam, qo'limdan kelganicha xizmat qilsam, deyman».

Inshoning dastlabki qismidan iborat bu ko'chirmada o'quvchining erkin mavzuda yoziladigan insho uslubi haqida durust malakasi borligi seziladi. Inshoda uning o'zi qiziqqan faniga e'tiqod va hurmat bilan qarashi ifodalangan. Ijodiy inshoning yozilish metodikasiga mos holda fikr yuritilgan.

Insho shunday yozilishi kerakki, kasb tanlashga ikkilanib turgan shaxs insho muallifining fikriga befarq qaray olmasin. O'quvchi o'z ishida nima uchun aynan shu sohani tanlashga qaror qilganini, kasbning tarixini, shu kasb bilan shug'ullanuvchi mashhur kishilar hayotini, orzularini izhor etsin. O'qigan adabiyotlaridan fikrlar keltirsin. Agar mazkur kasb sohiblari haqida badiiy adabiyotlar yaratilgan bo'lsa, ularni qisman tahlil etsin. Xullas, yozma ishda o'quvchining tanlagan kasb-hunariga nisbatan hurmati yaqqol sezilib turishi lozim.

Erkin mavzular qatorida yozuvchilar haqidagi insholar ham muhim o'rin tutadi. O'quvchining umumta'lim maktab va maxsus bilim yurtida olgan adabiyot fani haqidagi ma'lumotlari bunday inshoning asosini tashkil etadi Adib haqidagi insholarda so'z san'atining estetik, ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyatiga oid mulohazalar ham aks etishi lozim. Ma'lumki, har kim ham o'z xohishi bilan shoir yoki yozuvchi bo'lavermaydi. Buning uchun tabiat in'om etgan iqtidor bo'lishi kerak. Hamma ham ijtimoiy hayotdagi voqea-hodisalarda ishtirok etadi yoki uni kuzatadi. Hayot haqida o'z mulohazalariga ega bo'ladi. Ammo hamma ham ko'rgan-bilganlarini san'at darajasida ifodalay olmaydi. Shoir va yozuvchilarni oddiy kitobxonlardan ajratib turuvchi farq ham ana shunda. Bu o'rinda istalgan badiiy asarni namuna qilish mumkin. Oybekning «Qutlug' qon» asarida tasvirlangan voqealarga o'xshash voqealarni ming-minglab odamlar bilgan, ko'pchiligida ishtirok ham etgan. Biroq faqat Oybek Yo'lchi, Gulnor, Mirzakarimboy, Yormat kabi shaxslar hayoti va taqdirini badiiy so'z orqali ifodalash bilan o'zbek xalqi kechirgan turmush tarzini, uning uqubatli taqdirini, ozodlikka bo'lgan intilishini ko'rsata oldi.

Asrlardan buyon ona yurtimizga har yili bahor o'zining kelinlik sepini yoyib

mehmon bo'ladi, o'rik gullari kishini o'ziga maftun etadi, bahor shabadasi unga rohat bag'ishlaydi. Ammo faqat Hamid Olimjon derazasi oldida oppoq bo'lib gullagan o'rik bilan so'zlashishga, tabiat va inson o'rtasida tarjimonlik qilishga, o'z baxti haqida, o'tmishda gul ko'rmay yig'lab o'tganlarning qismati haqida shoirona fikr yuritishga muyassar bo'ldi.

Ma'lumki, erkin mavzuda yoziladigan «Men sevgan adib» mavzusidagi insholarda bilim yurti adabiyot fani dasturida alohida o'rganilmaydigan so'z san'atkorlarining ijodi haqida fikr yuritish nazarda tutiladi. Binobarin, Oybek va H. Olimjon ijodlaridai misol keltirganimizdek, o'quvchi ishni o'ziga ma'qul bo'lgan ijodkor asarlari haqida shunday fikr yuritishdan boshlasa, xato bo'lmaydi. O'quvchilar ko'proq murojaat etadigan Halima Xudoyberdiyeva, Oydin Hojiyeva, Muhammad Ali, Shukur Xolmirzayev, Rauf Parfi kabi so'z san'atkorlarining asarlari asosida bemalol ana shunday mulohazalarni bayon qilish mumkin. O'quvchining yozma ishida o'zida hurmat uyg'otgan adibga nisbatan cheksiz mehr-muhabbat ufurib turishi lozim.

O'quvchi o'z inshosida nima uchun aynan shu adibni sevib qolganini, adib haqida qanday adabiyotlar o'qigani, uning qaysi asarlari bilan tanish ekani, boshqa so'z san'atkorlaridan qanday xususiyatlari bilan farq qilishini asosli ravishda bayon etishi kerak. Inshoda sevgan adibning asarlaridan parchalar keltirish ham juda muhimdir. O'quvchi o'z ishida mazkur san'atkorlarning o'zbek adabiyoti taraqqiyotida tutgan o'rnini aniqlashga urinishi ham maqsadga muvofiqdir. Mustaqil ravishda o'rganilgan adib ijodini tahlil qilishga bag'ishlangai insholarga alohida ahamiyat berish kerak. Chunki kelgusida estetik didi shakllangan talabchan kitobxon ana shunday o'quvchilardan yetishib chiqadi.

«Men sevgan qahramon» mavzusida insho yozayotgan o'quvchining qahramonni tanlashiga qarab didini, muhofaza doirasini bilish mumkin. Agar bilim yurtida o'qiyotgan o'quvchi X. To'xtaboyevning «Sariq devni minib» asaridagi Hoshimjon obrazini tanlasa, demak, u yosh bolalarga xos fantaziya og'ushida sayr qilyapti. Agar shu yozuvchining «Qasoskorning oltin boshi» asaridagn Nomozni tanlasa, demak, u tabiatan sarguzashtli kechinmalarga

ishqiboz. O'zining hayotida qandaydir esda saqlanadigan qahramonlik ko'rsatib, xalq xotirasida qolish havasida yuribdi.. Tajribali o'qituvchi qardosh xalqlar adabiyoti yoki chet el adabiyoti namunalaridagi qahramonlar haqida insho yozgan o'quvchilar o'z insholarida haqiqatan yaxshi bilgan mavzularini yoki tasodifan tanishgan qahramonlari haqida yozganliklarini tezda ajratib oladi. Agar o'quvchi haqiqatan ham qiziquvchan bo'lsa va boshqa xalqlar adabiyotiga suyangan holda insho yozgan bo'lsa, o'quvchiga yozgan mavzui bo'yicha ko'proq kitob ko'rishi lozimligi uqtiriladi.

O'quvchilar o'z ishlarida tanlagan qahramonlarini nima uchun ma'qul ko'rishlarini yozadilar. Ularni boshqa obrazlar bilan qiyoslaydilar. Tahlil qilinayotgan shaxsning rostgo'yligi, mardligi, irodaliligi, xalqparvar va vatanparvarligidan o'rnak olishlarini bayon etadilar. Xullas, bunday insholarda o'quvchining badiiy adabiyotdagi do'sti, qolaversa, ideal kishisi ma'lum bo'lishi zarur.

Quyida murakkab va oddiy rejada tuzilgan insho ko'rinishiga taxminiy rejalarni misol tariqasida keltirib o'tamiz:

Mavzu: Vatan – sajdagoh muqaddas.

Bahrayn suvlarga chaydim yuzimni,

Nasimlar esdilar, iliq arabiy.

Bir osmon to'ldirib keldi ko'ksimni,

Vatan qolar ekan, Vatan abadiy.

(Sirojiddin Sayyid “ Vatan abadiy ” she'ri.)

Reja:

I. Kirish. Vatan so'ziga ta'rif.

II. Asosiy qism:

1. O'zbekiston – Vatanim manim.

2. Vatanparvarlik tuyg'usi haqida.

3. Vatanimiz – shoirlar madhida.

III. Xulosa. Men o'z Vatanim bilan faxrlanaman.

Mavzu: Mustaqillik – oliy ne'mat

Reja:

- 1. Ozodlik va erk uchun kurashish xalqimizning azaliy xususiyatlaridan biridir.***
- 2. Istiqbol va istiqlool.***
- 3. Vatan ozodligi yo'lida fidoyilik ko'rsatganlar to'g'risida.***
- 4. Mustaqillik bayraming qutlug' bo'lsin, ona O'zbekiston!***

Inshoda yo'l qo'yiladigan grammatik xatolar ustida ishlash

Yozma ishda yo'l qo'yiladigan xatolarni tugatishning samarali usullaridan biri o'quv saviyasi jihatidan sinfdoshlaridan orqada qolgan o'quvchilar bilan individual ishlashni yaxshi yo'lga qo'yishdir.

Ellikqal'a tumanida dars beruvchi tajribali bitta o'qituvchi bilan qilgan suhbatimiz bu fikrni yana bir bor tasdiqladi. Mazkur o'qituvchi o'quv yilining boshlanishidayoq guruhidagi bilimi zaif o'quvchilarni alohida ajratib, ularga qo'shimcha vazifa berib borganini aytdi. Uy vazifasi sifatida quyi sinflarda o'rganilgan materiallar topshirilgan. Bir necha oy mobaynida muttasil ana shunday mashg'ulotlar o'tkazilgan. Taxminan, uchinchi chorak o'rtalarida guruhdagi hamma tinglovchilar o'quv dasturini yaxshi o'zlashtira boshlagan. Bu jarayonda o'qituvchining o'zi ham bilimini ancha takomillashtirgan. Ma'lum bo'ladiki, darsning har bir daqiqasidan maksimal foydalanish, darsdan bo'sh vaqtlarda mustaqil mutolaaga e'tibor berish o'zining ijobiy samarasini albatta ko'rsatadi.

Ayrim o'quvchilar bilan o'tkazgan suhbatlarimizdan ayon bo'lmoqdaki, bir qator o'qituvchilarimiz adabiyot fanidan o'tkaziladigan yozma ishlarga loqaydlik bilan qarar ekanlar. Insholar o'z vaqtida yozdirilmaydi. O'quvchilar sinfda insho yozishga ulgurmasalar, uni tugatish vazifasi uyga berib yuboriladi. Natijada o'zimiz o'quvchiga inshoni turli manbalardan ko'chirib yozish imkonini yaratib beramiz. O'quvchilarning insholarini hamisha ham e'tibor bilan tekshirmaymiz. Ayrim hollarda insholarni tekshirishga guruhdagi yaxshi o'zlashtiruvchi

o'quvchilarni jalb qilamiz. Insho xatolari ustida ishlash mashg'ulotlari faqat baholarni e'lon qilishdan iborat bo'lib qolmoqda. Insholar o'quvchilarga qaytarilmaydigan yoki tezda yig'ib olinadigan hollar ham ro'y bermoqda. Bunday salbiy holat-larga tez orada chek qo'yishimiz, o'quvchi yozadigan inshoga katta hurmat bilan qarash hissini o'zimizda tarbiyalashimiz lozim. Ayniqsa, bilim yurtlarida yoziladigan insholardagi mustaqil fikrni rivojlantirishga alohida diqqat bilan qarashimiz kerak. Biron mavzuni o'quvchi qisqa muddatda o'zlashtirishi mumkin. Ammo insho yozish malakasifaqat yillar davomida olib borilgan mashaqqatli mehnat mahsuli sifatida vujudga keladi. Inshoda o'quvchining ham fan asoslarini o'zlashtirish darajasi, ham mustaqil fikrlash qobiliyati, ham savodxonligi dialektik birlikda namoyon bo'ladi.

Bir qator metodist o'qituvchilar insholarni tekshirishda imlo xatolarini tasnif qilish borasida o'z mulohazalarini respublika matbuotida e'lon qildilar. Ayrimlar xatolar tasnifini murakkablashtirishni ma'qul ko'rmoqdalar. Ularning fikricha, xatolarning xarakterini aniq belgilash o'quvchilar savodini oshirishdagi samarali tadbirlardan biridir. Bu to'g'ri, albatta. Ammo shu bilan birga, ish tajribasida ko'proq uchratiladigan grammatik xatolar xarakteridan kelib chiqqan holda, ularning uch turiga! ko'proq e'tibor bermog'imiz ma'qul. Xususan, xatboshi qoidasiga rioya qilmagan holda texnik xatoga, ba'zi ma'lumotlarni noto'g'ri keltirish orqali faktik xatolarga yo'l qo'yish hollari kam uchrashini hisobga olish lozim.

Bu o'rinda tilshunoslarimiz grammatik xatolar turini aniq belgilash bo'yicha amaliy yordam ko'rsatsalar yaxshi bo'lar edi. Jumladan, haligacha qaratqich va tushum kelishigini qo'llashda yo'l qo'yiladigan xatoni orfografik yoki uslubiy deb belgilashda yakdillik yo'q. Bizningcha, bunday xatolarni uslubdagi nuqson sifatida ko'rsatish ma'qul. O'quvchi o'z shevasiga binoan insho yozganda, yozma ishning uslubiga putur yetsa, uslubiy xato deb ko'rsatilishi to'g'ri bo'ladi. Jumladan, inshoda o'rin-payt kelishigi qo'shimchasi -da o'rnida jo'nalish kelishigi qo'shimchasi -ga qo'llansa, insho tiliga salbiy ta'sir etuvchi shevaga xos so'zlar yozilsa, adabiy til normasidan chetga chiqilsa, inshoda uslubiy xatoga yo'l

qo'yilgan hisoblanadi. Agar «bordi» — «boddi», «to'liq» — «to'liq», «kelinni» — «kelindi» tarzida yozilsa, orfografik xatolar qatoriga qo'shiladi.

Orfografik xatolarning ko'p-kamligi o'quvchi savodini belgilovchi mezonlardandir. Orfografik xatolar grammatik qoidalarga rioya qilmaslik, so'z yasovchi va so'z o'zgartuvchi qo'shimchalarni ajrata olmaslik, rus, internatsional va boshqa tillardan qo'shilgan so'zlarning yozilishini bilmaslik, so'zlarning orfografik jihatdan to'g'ri yozilishiga amal qilmaslik kabi bir necha nuqsonlar natijasida vujudga keladi. Masalan, o'quvchi tog'ga o'rniga toqqa, ko'kka o'rniga ko'kga deb yozadi. Demak, ona tili darsida kelishiklarning yozilishi, mavzularini yaxshi o'zlashtirmagan o'quvchi ko'pincha so'nggi, so'ngi, tonggi, tongi kabi so'zlarning yozilishida ham imlo xatoga yo'l qo'yadi. So'ng, tong so'zlariga -gi sifat yasovchi qo'shimchasi qo'shilganda so'nggi, tonggi tarzida yoziladi: «Abdulla Qahhor hayotining so'nggi yillarida badiiy jihatdan yanada mukammalroq asarlar yaratdi». Bu so'zlarga uchinchi shaxs egalik qo'shimchasi -i qo'shilganda so'nggi, tonggi tarzida yoziladi: «Abdulla Qahhor hayotining so'ngida badiiy jihatdan yanada mukammalroq asarlar yaratdi».

Binobarin, o'qituvchi imlo xatolari ustida ishlash davomida ona tili darsida o'rganilgan qonun-qoidalarni erinmasdan o'quvchilarga qayta tushuntirmog'i lozim.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, har bir o'qituvchining ish daftarida yozma ishlarda xatoga yo'l qo'yiladigan aktiv so'zlarning qayd etilishi va mashg'ulotlar davomida ularning imlosini o'rganish yaxshi natija beradi. Taassurot, namoyanda, mutafakkir, afzal, ma'qul, ma'lum, tatbiq, tibbiyot, madh, mukammal, mufassal, tad-qiq, ilm, zehn kabi so'zlarning yozilishiga talabalarning e'tiborini qaratish kerak. Bunday so'zlarning umumiy soni yuzdan ortiq bo'lishi mumkin. Mashg'ulotlar davomida ulardan 3-4 so'zni o'rgatib borsak ham inshodagi xatolar soni birmuncha kamayadi.

O'quvchilar x bilan h harflari ishtirok etadigan so'zlarda ko'p imlo xatoga yo'l qo'yadilar. Bunday xatolarni tuzatishning to'rt yo'li bor. Birinchidan, o'qituvchi o'z nutqida mazkur so'zlarning talaffuziga e'tibor beradi. O'quvchilardan ham

to'g'ri talaffuz qilishni talab etadi. Mehnat — mexnat, muhabbat — muxabbat, xalq — halq tarzida aytilaversa, inshoda ham o'quvchi shu tarzda yozishga o'rganib qoladi. To'g'ri aytilsa, inshoda ham imlo xatosiz yoziladi. Ikkinchidan, arab tilidan kirgan ayrim bir o'zakli so'zlarning yozilishini o'rgatsak, bu so'zlarning yozilishida xatoga yo'l qo'yilmaydi. Xususan, xulq, axloq; aholi, mahalla; hukm, mahkum, mahkama, muhokama, hokim, hokimiyat kabi so'zlarni ularning o'zagiga qarab eslab qolish mumkin. Uchinchidan, ham — xam, har — xar, hol — xol, hil — xil kabi ma'no jihatdan farq qiluvchi so'zlarning yozilishini eslab qolish orqali ularning yozilishini o'rganish mumkin. To'rtinchidan, doimiy mashq o'tkazish orqali ham so'zlarning yozilishi o'rganiladi. Bunday mashqlar uzluksiz davom ettirilishi, imlo xatolar ustida ishlash paytida qayta-qayta esga olinishi, o'rganilgan so'zlarni qo'llashga harakat qilinishi orqali amalga oshiriladi.

Insholarda bir qator punktuatsiya qoidalarini bilmaslik natijasida ham xatolarga yo'l qo'yiladi. Ko'pincha o'quvchilar kirish so'zlardan keyin vergul qo'yishni bilmaydilar. Uyushiq bo'laklarni ham vergul bilan ajratmaydilar. Ko'chirma gaplardagi tinish belgilarini qo'yishga ham mas'uliyatsizlik bilan qaraydilar. Dars mashg'ulotlarida o'quvchining nutqidagi bironta tapni taxtaga yozdirib, unda yo'l qo'yilgan punktuatsion xatolarni qoidalarni eslash orqali yo'qotish yaxshi natija beradi.' Ko'chirma, o'zlashtirma gaplar haqida ma'lumot berib borish ham ma'qul.

Uslubiy xatolar so'zlarning ma'nosini yaxshi o'zlashtirmaslik, gapda so'zlarning o'zaro bog'lanishiga e'tibor bermaslik natijasida vujudga keladi. Insholarda «Kumush obrazi oqila, irodali o'zbek ayolining tipik vakilidir»;" «Hamid Olimjon asarlari o'qimishlidir» kabi gaplar uchrab turadi. O'quvchi oqila, irodali ayol obraz emas, Kumush ekanini aniq anglab yetmagan holda gap tuzadi yoki asar o'qimishli bo'lishi mumkin emasligini, mazkur so'z faqat insonga nisbatan qo'llanilishini bilmasdan inshoda qo'llayveradi. Binobarin, o'qituvchi o'z talabalariga so'zlarni qo'llashda ehtiyot bo'lish kerakligini uqtirishi lozim. Ayni chog'da «Kumush obrazi» emas, «Kumush—o'zbek ayollarining tipik vakili» ekani; «H. Olimjonning asarlari o'qimishli» emas, «o'qishli» ekanini tushuntirishimiz kerak. Bunday paytlarda o'quvchi yo'l qo'ygan kamchilikni

o'ziga yaxshilab tushuntirish orqaligina ish olib borish mumkin. yozilayotgan inshodagi gaplarning ma'nosiga mas'uliyat bilan qarash hissini hosil qilmay turib yozma ishlardagi grammatik xatolarni kamaytirish mumkin emas. O'quvchi tomonidan yo'l qo'yilgan har bir kamchilik uning taqdiriga salbiy ta'sir etishi mumkinligini ham uqtirishimiz kerak.

Insholarda yo'l qo'yiladigan grammatik xatolar ustida ishlash metodikasi alohida yirik bir qo'llanmaga mavzu bo'la oladi. Biz esa bitiruv malakaviy ishimizda bu masala haqida keng va atroflicha fikr yuritish maqsadini o'z oldimizga qo'ymadik. Shu sababli fikrlarimizni yuqorida qayd qilingan ayrim mulohazalar bilan yakunlashni ma'qul topdik.

UMUMIY XULOSALAR

Insho yozishda o'quvchilarga kerakli maslahatlar, ko'rsatmalarni berib borish foydadan holi emas. Quyidagi keltirmoqchi bo'lgan holatlar insho yozishda inobatga olinsa, inshoning mukammal bo'lishini ma'lum ma'noda ta'minlaydi. Asosiylarini keltirib o'tamiz:

1. Tuzilayotgan jumalarning lo'nda va aniq bo'lishiga alohida e'tibor berib borish lozim.

2. Insho mazmuni materiallarni bayon qilish uslubi bilan chambarchas bog'liq ekanligini hech qachon unutmaslik lozim.

3. Insho mavzusi bilan bog'liq materiallarni bayon qilayotganda izchillikka qattiq rioya qilish kerak. Insho mavzusiga aloqador shaxslarning nomlarini, badiiy asarlardan olingan parchalarni, tarixiy faktlarni, toponimik atamalarni yozishda amaldagi imlo qoidalaridan kelib chiqqan holda ish ko'rish kerak.

4. Inshoni yuksak savodxonlik bilan yozishga harakat qilish.

5. Tinish belgilarning ishlatilish o'rinlariga diqqat qilish, ularning shakllari aniq va ko'rinarli bo'lishiga e'tibor qilish lozim.

6. Insho husnixat qoidalariga muvofiq ravishda yozilishi lozim. Inshoning hajmi 4-5 sahifadan (varaq emas) iborat bo'lsa, yetadi. O'ta ixcham shakllarda yozilgan yoki mazmuni huda-behuda so'zlar bilan to'ldirilib yuborilgan cho'ziq insholar ishning umumiy bahosiga salbiy ta'sir qilishi mumkin.

Har qanday insho quyidagi uch bo'limdan iborat bo'ladi. Buni foiz nuqtayi nazaridan quyidagicha ko'rsatish o'rinlidir.

<i>Kirish</i>	<i>Asosiy qism</i>	<i>Xulosa</i>
10-15%	70-80%	10-15%

Foiz nuqtayi nazaridan inshodagi qismlar o'rtasida nomuvofiqliklar uchrasa, xususan, kirish va xulosa qismi kengaytirilib yuborilgan bo'lsa-yu, asosiy qism o'ta tor bo'lib qolgan bo'lsa, bu narsa inshoning mazmuniga jiddiy darajada putur yetkazishi mumkin. Inshoni baholayotganda, albatta, bular ham hisobga olinadi.

7. Insho mavzusi aniqlab olingach, mazkur mavzudan kelib chiqqan holda insho rejasi tuziladi. Tuziladigan reja insho mazmunini o'zida to'la-to'kis ravishda

namoyon qilib turmog'i, u izchillik asosida mavzudan chetga chiqmagan holda tuzilmog'i darkor. Insh rejasi tuzib olingandan so'ng mavzuga har tomonlama mos keladigan muqaddima so'z (epigraf) tanlab olinadi.

8. Insho boshqalarga xalaqit bermasdan, umumiy tartib-intizomga qattiq rioya qilgan holda yoziladi.

9. Tayyor yozilgan, trafaret usulidagi insholardan foydalanishga sira ham harakat qilmaslik kerak. Ular o'quvchilarni adashtiradi, fikrlarni chalg'itadi.

Shuningdek, yuqoridagi holatlar qatoriga asosiylaridan qilib, yana bitta holatni keltirib o'tish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. Ya'ni o'quvchi insho yozayotgan paytda, insho mavzusiga mos, o'zgalarning aytgan fikrlarini ko'chirma gap shaklida keltirib o'tsa, yanada yaxshi bo'ladi. Sababi quruq aytilgan gapdan ko'ra, keltirilgan dalil undan yaxshiroqdir. Masalan, o'quvchi "O'zbekiston - kelajagi buyuk davlat" mavzusida erkin insho yozayotgan bo'lsa, bu mavzuga daxldor ko'pgina fikrlarni keltirishi mumkin. Birgina Yurtboshimiz I. Karimovning: "Farzandlari sog'lom yurt, qudratli bo'lur"⁸ gapini keltirish insho mazmunini qanchalik boyitadi. O'quvchining o'zi ham mustaqil ravishda bu fikrga izoh, ta'rif berib borishi kerak. Yoki bo'lmasa, "Vatan – sajdagoh kabi muqaddas" mavzusini olaylik. Bu mavzudan anglashiladiki, insho yozayotgan shaxs, avvalo, Vatan so'ziga ta'rif beradi, nima uchun sajdagoh kabi muqaddas ekanligiga javob axtaradi va u, shu o'rinda Abdulla Avloniyning quyidagi gapini keltirib o'tsa, insho quruq gapdan iborat bo'lmaydi:

"Har bir kishining tug'ilib o'sgan shahar va qishlog'i, shul kishning Vatani deyilur. Har kim o'z Vatanini jonidan ortiq suyur va hatto bu tuyg'u hayvonlarda ham uchrog'usidir, mabodo bir hayvonni, misol uchun, mushukni o'z uyidan uzoq yerga olib borib tashlasak u o'z uyidek rohat-farog'atda yashamas, maishati talx bo'lib, dilining har go'shasida o'z Vataniga bo'lgan sog'inchi turur."

Shuningdek, Prezidentimiz Islom Karimovning: "Har birimiz uchun Vatan – sajdagohdek pok va muqaddas bo'lmog'i darkor",- deya aytilgan Vatan haqidagi qimmatli fikrlarni inshoda keltirish, insho saviyasini yuqoriga ko'taradi, qimmatini oshiradi.

Biz ozod yurtning ozod farzandlarimiz, bizning O'zbekistondek go'zal, jannatmakon yurtimiz, so'zi shirin odamlarimiz bor. Xohlagan o'quvchi, bugunga kelib balki, shuning uchun hamdir, iliq so'zlar bilan, mag'rurlanib, jo'shib-jo'shib insho yozishi mumkin va hatto fikrlarini Vatan haqida aytilayotgan fikrlar bilan boyita ham oladi. Misollardan ko'rinyaptiki, o'zgalarning gapini keltirib o'tish, ko'proq erkin insho uchun xosdir. Chunki unda o'quvchinnig o'zi mustaqil ravishda ijod qiladi.

Yuqorida qayd qilingan tavsiyalarga o'z vaqtida rioya qilib borilsa, o'ylaymizki, o'qituvchi dars jarayonida o'z maqsadiga erishgan bo'ladi. O'sayotgan yosh avlod esa o'z taqdiriga jiddiy yondashuvchi, o'ylab mulohaza yurutivchi inson bo'lib tarbiyalanib boradi.

Xullas, insho nafaqat nazorat usuli, balki o'quvchini fikrlashga, izlanishga, til boyligini osirishga undovchi ijod mahsuli hamdir. Shu bois doimiy ravishda o'quvchilarni insho yozishga o'rgatib borish maqsadga muvoffiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. – Toshkent.: Manaviyat, 2008.
2. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. Т.2011.
- 3.Мадаев О. Иншо кандай ёзилади. Тошкент. Ўқитувчи .1991.
- 4.Siddiq Fuzailov, Matluba Xudayberganova “Ona tili” 6-sinf uchun darslik. Toshkent. “O’qituvchi” 2002 yil.
5. M. Umarova, Sh. Hakimova “O’qish kitobi” 6-sinf uchun darslik. Toshkent. “Ijod dunyosi” nashriyot uyi. 2002 yil.
6. Абрамович С.А. Уроки внеклассного чтения в 7-8 классах М, Л. 1964.
7. Bo’ronov M. O’zbek tili o’qitish metodikasining bazi masalalari. Nukus, «Bilim» 1998.
8. Bo’ronov M. O’qituvchilar nutqidagi dialektal xatolar va ularni bartaraf qilish yo’llari. Nukus, «Qoraqalpog’iston», 1990.
9. Ziyodova T. Tilsim topishmoqlari-nutqiy faoliyatini shakllantirish omili. Toshkent, «O’qituvchi» 1999.
10. Yoqubjonova O. Ona tilidan sinfdan tashqari ishlar. Toshkent, «O’qituvchi» 1984.
- 11 Tursunov U, Muxtarov J. Rah’matullaev Sh. Hozirgi o’zbek adabiy tili. Toshkent. 1992.
12. Umumiy o’rta talimning davlat talim standarti va o’quv dasturi Ona tili, O’zbek tili (talim boshqa tilda olib boriladigan maktablar uchun) 1999 yil, 1-maxsus son.
13. Shomaqsudov Sh, Shoah’medov Sh. Nega shunday deymiz. Toshkent, 1988.
14. G’ulomov A.Q. Nematov H. G’. Ona tili talimi mazmuni. T, «O’qituvchi» 1995.
15. O’zbek va qoraqalpoq tillarining lug’atlari maktab darsliklari.

16. Madaminov B “Ona tili o’qitish samaraliligini oshirish” T. “O’qituvchi 1969 yil.
 17. Imlo lug’ati “Maktab o’quvchilari uchun” Toshkent “O’qituvchi” 1976.
 18. A.G’ulomov “Darsliklarda lug’atlardan foydalanish” Sovet maktabi 1989 y. 5-Son.
 19. Osnoviy didaktiki “Prosveshenie” M 1967 yil.
 20. A.Zununov “Badiiy obrazlarni o’rganish” Sovet maktabi jurnali. N8 1969 yil 48-bet.
 21. ”Xalq talimi va boshlang’ich talim” jurnallari 2000-2002 yillardagi.
 22. M. Bo’ronov “Qoraqalpog’istondagi o’zbek maktablari o’quvchilari nutqidagi dialektal xatolar va ularni bartaraf qilish yo’llari” Nukus. Qoraqalpog’iston. 1990 yil.
 23. Sh. Abdullaeva “Mustaqil ishlarni tashkil etish” Jurnal “Sovet maktabi” N6 1980-yil.
 24. Tekin Halil. E’gitimde o’lchme ve de’gerlendirme. Ankara, 1994, 312 bet.
 25. To’xliiev B. Til va adabiyot talimining dolzarb muammolari // Filologik talim: muammo va echimlar. Toshkent, 2004. 5-9 betlar.
 26. F. Bobojonov. O’quvchilar bilimini yozma usulda nazorat qilish. Язык – всем знаниям и всей природе ключ (Республика илмий-амалий анжумани материаллари) Нукус, 2010 й.
 27. F. Bobojonov. Test nazorati: muammolar va yechimlar. Филологик тадқиқотлар III. (Илмий тўплам). Тошкент, 2012. 18-20 бетлар.
 28. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Тошкент, Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 1, 2, 3, 4, 5 жилд. 2008 й.
- <http://www.ziyonet.uz/>
www.literature.uz

MUNDARIJA:

Kirish	
I BOB. INSHO NAZARIYASI	
1.1. Inshoda mavzuning tutgan o'rne.	
1.2. Reja tuzish.	
1.3. Inshoning asosiy matni ustida ishlash.	
1.4. Epigrafi – muxtasar bayon.	
1.5. Tezis, dalil, sitata va xatboshi.	
II BOB. INSHO YOZISHGA TAYYORGARLIK	
2.1. Insho material bilan tanishish.	
2.2. Insho bosqichlari (qoralama (xomaki), asl nusxasi.)	
2.3. Insho bayonidagi topqirlik.	
2.4. Inshoda nazariy bilimning ahamiyati.	
III. BOB. INSHO TURLARI VA UNDAGI GRAMMATIK XATOLAR USTIDA ISHLASH	
3.1. Adabiy mavudagi insho.	
3.2. Adabiy-ijodiy insho.	
3.3. Ijodiy (erkin) insho.	
3.4. Inshodagi grammatik xatolar ustida ishlash.	
UMUMIY XULOSALAR	
Foydalanilgan adabiyotlar	